

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
«TABIY FANLAR» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

«Umumta'lim maktablarining 7-sinflarida «O'rta Osiyo tabiat zonalari»
mavzusini o'qitish metodikasi
mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi

Bajardi: «Geografiya o'qitish metodikasi» ta'lim
yo'nalishi IV- bosqich talabasi
Xolboyeva X.Q.

ILMIY RAHBAR: g.f.n., dos. Raxmatov Yu. B.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi « _____ » _____ **2015 yil.**

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiatshunoslik fakulteti Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasining
1-sonli yig`ilish bayonnomasidan

K O` C H I R M A

Navoiy shahri

27 avgust 2014 yil

Qatnashdilar: kafedra mudiri, kat. o`qit. Buranov Yo.R., dotsentlar: Raxmatov Yu. B., Kalonov B. H., katta o`qituvchilar: Abdiyeva Z.A., B. S. O`rinov, M. M. Qodirova, Sh. Sh. Norov, o`qituvchilar: S.Q.Negmatov, kabinet mudirasi: Fayziyeva Sh.U.

K U N T A R T I B I:

2014-2015 o`quv yilida «Geografiya va uni o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I:

Kafedra mudiri: katta o`qituvchi Yo.R. Bo`ronov: Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi № 225-sonli buyrug`iga binoan “**Oliy o`quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yiladigan talablar**” asosida tanlangan.

«Geografiya va uni o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi IV-kurs “B” guruh talabasi **Xolboyeva Xurshida Qudratovna** mavzular orasidan **Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta osiyo tabiat zonalari»** mavzusini o`qitish metodikasi mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida **g.f.n., dos. Raxmatov Yu. B.** belgilandi.

Q A R O R Q I L I N D I:

«Geografiya va uni o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi IV-kurs “B” guruh talabasi **Xolboyeva Xurshida Qudratovga Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta osiyo tabiat zonalari»** mavzusini o`qitish metodikasi mavzusi berilsin va ilmiy rahbar sifatida **g.f.n., dos. Raxmatov Yu. B.** tayinlansin.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi Yo.R. Bo`ronov

Oliy o'quv yurti

fakulteti

kafedrası

yo'nalishi

Tasdiqlayman _____

Kafedra mudiri _____

20____ yil _____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____
(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi _____

“ _____ ” _____ 20____ yil. Kafedra majlisida tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar _____

4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

5. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

Tabiiy fanlar fakulteti
«Geografiya o`qitish metodikasi» kafedrası

2015 yil “ ___ ” _____

№ _____ yig`lish bayoni

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o`qituvchilari

K U N T A R T I B I:

2014-2015 o`quv yili «Geografiya o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi bo`yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to`g`risida

E S H I T I L D I:

Bitiruvchi _____ ning

Mavzusi: _____

Ilmiy rahbar:

Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta`lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

Q A R O R Q I L I N D I:

Bitiruvchi _____ ning

_____ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi Yo.R. Bo`ronov

Davlat attestatsiya komissiyasining RAISIGA

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti «Geografiya o`qitish metodikasi» ta'lim yo'nalishi kunduzgi bo'lim IV- kurs “ ___ “ guruh talabasi _____ning

mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko'chirma, Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taqrizi, kafedraning rahbarini tasdiqlash va ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, ichki va tashqi taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

b.f.n. B.E. Jumaboev

Navoiy davlat pedagogika instituti
«Geografiya o`qitish metodikasi» kafedrasining
Bitiruv malakaviy ishi haqidagi
XULOSASI

_____ kurs “ _____ ” guruh talabasi _____ning _____

_____ mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va Davlat Attestatsiyasi komissiyasiga himoyaga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi Yo.R. Buranov

Mundarija.

Kirish.

I. Bob. Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning dolzarbligi va maktab geografiya ta`limida tutgan o`rni.

1.1 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusining maktab geografiya ta`limida tutgan o`rni va ahamiyati.

1.2 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari»ga umumiy ta`rifi.

II. Bob. Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodlari.

2.1 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning maqsadlari va vazifalari.

2.2 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodlari.

2.3 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishda noan`anaviy dars uslublarini qo`llash. Darsni mustahmamlash, rivojlantirish va uyga topshiriq berish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

KIRISH.

**O`quv qayda bo`lsa, ulug`lik bo`lar.
Bilim qayda bo`lsa, buyuklik bular.
Yusuf Xoj Xojib.**

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan «Ta`lim to`g`risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ko`rsatilgan sohalarni amalga oshirib borib, jamiyatimizning kelajagi uchun har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan. Dasturda ko`rsatilgan dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari jamiyat taraqqiyotini har tomonlama yetuk kadrlarsiz. Ayniqsa, o`qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin.

Malakaviy pedagogik mutaxassislar tayyorlash esa ko`p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog`liqdir. Ayniqsa, hozirgi axborot texnologiyalariga tayangan holda geografik hodisa, voqealarni hamda tabiiy-iqtisodiy geografik tushuntirishlarni o`quvchilar, talabalar ongiga yetkazish va shakllantirish har bir mutaxassis o`qituvchilardan yuqori ma`suliyat talab qiladi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Har bir mavzu o`qitilishda o`qituvchining pedagogik mahorati birinchi o`rinni egallaydi. O`qituvchi dars maqsadidan kelib chiqqan holda darsni yangi pedagogik texnologiya asosida o`tkazsa ham ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Dars maqsadiga erishishda o`qituvchi o`qitish metodlarini juda mukammal bilishi ham o`rin egalaydi.

Har bir o`qituvchi yoki biz bo`lajak o`qituvchilar ham bir darsga kirishdan avval, o`z maqsadimiz va vazifalarimizni chuqur anglagan holda tayyorgarlik ko`rishimiz lozim. Shundagina biz o`qituvchilarni darsimizga qiziqtirib, o`zimizning jamiyatga kerakli inson pedagog bo`lib etishimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Kutilayotgan ilmiy yangiliklar: «Ta`lim to`g`risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da o`quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko`nikma va malaka hosil qilishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymoqda.

Har bir o`quvchi va talaba dars davomida olgan ko`nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo`ladi.

Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga muvofiq umumiy o`rta ta`limning barcha bo`g`inlarida o`quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o`quvchilarda mehnat ko`nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o`z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi.

Bu vazifalarni bajarishda geografik ta`limi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o`qitish borasida milliy dasturda qo`yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda.

Bularning barchasi geografiya fani o`qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o`z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o`z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o`qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o`z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda umumta`lim maktablarining 7-sinflarida O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanida berilgan «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishda geografiya ta`limida qo`llaniladigan metodlardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o`zlashtirilgan ko`nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o`qishda qo`llaniladigan ko`rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo`llarini yoritishga harakat qildim.

Olingan natijalarni amaliyotda foydalanishga tavsiya etish: Mavzuni o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to`plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`rganishda boshqa materiklarning tabiiy geografik xususiyatlarining o`zgarish sabablarini, iqtisodiy, madaniy yutuqlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografiya fanining maqsadi va vazifalariga hamda mazmuniga o`z ta'sirini ko`rsatmoqda.

Bu borada buyuk olim N.N.Baranskiy tabiiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlarda geografiya tabiat zonalari tushunchasini ahamiyatiga to`xtalib, bu tushunchaning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun ahamiyati nihoyatda katta ekanligini, uning tabiiy-iqtisodiy nazariyasi boshqa tabiiy-iqtisodiy fanlar bilan bog`lovchi vosita ekanligini doim uqtirib kelgan.

Bu tushuncha mavzusini o`rganishning deyarli barcha mavzularida mamlakatlar, shaharlar, rayonlar, o`lkalar tabiat zonalari hamda xo`jaligini o`rganishda xo`jalik tarmoqlari o`rtasidagi tabiat zonalari o`zaro aloqalarini bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Geografik tabiat zonalari tushunchasi o`quvchilar bilimini ma`lum bir tizimga solishda, uning yordamida boshqa iqtisodiy geografik tushunchalarning shakllanishi ancha yengillashadi.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusida tabiiy-iqtisodiy geografik tabiat zonalari tushunchasi xududlar, o`lkalar misolida har bir xudud, o`lka xususiyatlari va joylashishi chuqur o`rganiladi. Ayniqsa, tabiat zonalari tushunchasining tabiiy-iqtisodiy kartalari va darsliklardan xilma-xil mazmundagi kartalar orqali hududlar, o`lkalar hamda tabiiy geografiyadagi mintaqalar aloqalarini bilib olishda katta ahamiyatga ega. «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`rganishning asosiy joylaridan biri mamlakatlar, xududlar, o`lkalar geografiyasi hisoblanadi.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`rganishda eng asosiy obyekt tabiiy geografik xususiyatlari, xududiy aloqalar, aholi joylashuvi va xo`jaligi yetakchi o`rin egallaydi. Bundan tashqari O`rta Osiyoning siyosiy tuzumi, kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tabiiy sharoiti materiallari bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir.

Bu materiallar darslikdan materiallarni to`ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi.

Umumiy holda aytadigan bo`lsak, umumta`lim maktablarining 6-sinfida materiklar tabiiy geografiyasi fani orqali «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko`nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g`oyalarini jamlagan holda o`rganildi. Chunki bilim ijtimoiy tushuncha va tafakkur muhim bo`lib, mavzuni yoritishda mavjud ma`lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi.

Ko`nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig`indisidir. Bu iqtidor va ko`nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Umumta`lim maktablarining 7- sinflarida o`tiladigan O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi kursida o`tiladigan «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`rganishda o`quvchilar o`z fikr va muloxazalarini amalda bajarishga intiladilar.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusi qo`shni xududlar orasida tutgan o`rni, ular bilan olib borilayotgan aloqalari haqidagi bilim va ko`nikmalarni o`z ichiga oladi. Ayniqsa, o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to`ldirish orqali o`quvchilarda geografik ko`nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan geografiya kafedresi professor-o`qituvchilariga o`zimni minnatdorchiligimni bildiraman. Bitiruv ishimni kelgusida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanidan o`tiladigan mavzularida foydalanishga harakat qilaman.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, to`rtta bo`lim, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va jadvallardan iborat.

I. Bob. Umumta'lim maktablarining 7-sinflarida «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o'qitishning dolzarbligi va maktab geografiya ta'limida tutgan o'rni.

1.1. Umumta'lim maktablarining 7-sinflarida «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o'rni va ahamiyati.

Maktab geografiya ta'limida «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusiga «Umumiy o'rta» ta'limning «Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi»ga muvofiq 2 soat dars ajratilgan. Bu mavzuni o'zlashtirishdan ilgari o'quvchilar 6-sinf «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» kursida geografik qobiq, uning xususiyatlari, litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera qobiqlari to'g'risida, Avstraliya, Antraktida, Shimoliy va janubiy Amerika, Yevrosiyo materiklarining geografik o'rni, tekshirilish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, ichki suvlari va tabiat zonalari haqida Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lganlar. Bu bilim va ko'nikmalar yer yuzasi tabiati, xo'jaligi xususida o'quvchilar dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi. 5-sinf umumta'lim maktablarida dastlab «Tabiiy geogryafiya» so'ngra 6-sinf umumta'lim maktablarida «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» o'tiladi. O'quvchilar «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o'tgunlariga qadar Materiklar va okeanlar tabiatining asosiy xususiyatlari va boshqa materiklarning geografik o'rni, chegaralari, tekshirish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, ichki suvlari va tabiat zonalari kabi mavzularini o'tishgan bo'lishlari shart. Bu mavzular orqali ular O'rta Osiyoning tabiat zonalari hududda qay darajada o'rganilganlining, iqlimi va suv resurslariga ta'sir qiluvchi omillar, ichki suvlarining davrlar bo'yicha rivojlanishi, tadqiqotchi va sayohatchilarning ichki suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida O'rta Osiyo hududlari bo'yicha olib borgan tekrihishlari xususidagi tushunchaga ega bo'ladilar. Bu yangi mavzuni o'zlashtirish uchun o'quvchilar ongida yetarligicha zamin hozirlangan bo'ladi.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusining maktab geografiya ta`limida tutgan o`rni va ahamiyati quyidagilardan iborat.

- O`quvchilarda O`rta Osiyoning tabiat zonalari: hududning Yevrosiyo materigi orasida joylashgan o`rni, joylashgan kordinatalari, geografik o`rni, tekshirilish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, ichki suvlari, hududni o`rgangan tadqiqotchi olimlar va sayohatchilarning qilgan kashfiyotlari, ular tomonidan kashf qilingan tekislikdagi va tog`lardagi daryolari, ko`llari, yer osti suvlarining hosil bo`lishi haqidagi bilim va ko`nikmalarini kengaytiradi va ularni to`ldiradi.

- O`rta Osiyo tabiat zonalari mavzusini o`rganish orqali o`quvchilar hududning Yevrosiyo materigi orasida joylashganligi, qaysi davrlarda geografik o`rni, tekshirilish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, xududning tekislikdagi va tog`lardagi daryolari, ko`llari, yer osti suvlarini o`rgangan tadqiqotchilar haqidagi bilimlarga hamda daryo, ko`l, suv ombor, yer osti suvlar kabi tushunchalarni o`zlashtiradilar.

- O`rta Osiyo tabiat zonalari mavzusini o`rganish orqali o`quvchilar hududning tabiat zonalariidagi geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, suv zaxiralarning geografik joylashganligi va ularning holati, joylashgan rayonlari va ularni kashf qilgan olimlar xususida bilimlarga ega bo`ladilar.

Bu bilimlar o`quvchilarning geografik o`rni, iqlimi, ichki suvlari, tabiati to`g`risidagi, unda ro`y beradigan tabiiy geografik hodisalar to`g`risidagi ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi. Bu mavzu orqali o`quvchilar O`rta Osiyoning tabiat zonalariining tarkib topishi va rivojlanish xususiyatlari juda murakkab ekanligini, bu hudud turli davrlarda kashf qilinganli, turli geologik davrlarni o`z boshidan kechirganligi, hududning tabiiy resurs zaxiralariiga boy ekanligini o`rganadilar, Mavzu o`quvchilar xotirasida hududning tabiiy resurslarga, ichki suvlariga, turli geologik davrlardagi o`rganilganligiga, yer osti suvlariga, ularning yotish holatlariga va rivojlangan hududlariga, suv resurslarining turlariga, daryo suv havzalariga kabi tushunchalarning tiklanishiga va rivojlanishiga olib keladi. O`quvchilar

bevosita mavzu doirasida O`rta Osiyoning tabiat zonalari orqali hududning tabiiy resurslarining geologik davrlar: baykal, kaledon, gersin, alp burmalanishlari, bu davrlarda hosil bo`lgan daryo, ko`l, yer osti suvlari, ularning yotish holatlarini, suv havzalari va ularning joylashgan rayonlari va hududlari, yirik suv omborlari, ya`ni Markaziy Qozog`iston, Tyanshan, Pomir, Markaziy Qizilqum va Qoraqum hamda boshqa suv zaxiralari haqida ma`lumotga ega bo`lib, shu to`g`risida bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladilar.

Orta Osiyoning tabiat zonalari o`ziga xos jihatlarini o`quvchilar mavzuni o`zlashtirish jarayonida o`rganadilar. Xudud maydonining 70,0 foizidan oshig`ini egallagan tekisliklar zonasida zaxiralarning qanchalik ko`pligi sabablarini tushunadilar. Mavzuni o`rganish orqali O`rta Osiyo xududidagi suv zaxiralarning vujudga kelishi va rivojlanishi taraqqiyoti xususiyatlarini, o`rgangan tadqiqotchilar haqidagi ma`lumotlari kengayadi. Bu O`rta Osiyo hududi to`g`risidagi bilimlarning mukammallashuviga olib keladi.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini yaxshi o`zlashtirish kelajakda o`tiladigan iqlimi, tuproqlari, o`simliklari va hayvonot dunyosi mavzulari oson o`rganilishini ta`minlaydi.

Bu mavzuni o`rganish o`quvchilarga tabiatni, atrof-muhitni, suv resurslarini ifloslanishdan saqlash, suvlardan unumli foydalanish, har qanday suv resurslari boyligining inson hayotida muhim o`rin tutishini anglashlariga ko`mak beradi.

1.2 Umumta'lim maktablarining 7-sinflarida «O'rta Osiyoning tabiat zonalari»ga umumiy ta'rifi.

Geografik o'rni, chegaralari va maydoni. Yer kurrasi o'ziga xos rang-baranglikni mujassamlashtirgan turlicha qismlardan tashkil topgan. Xududiy jihatdan turlicha kattalikdagi bu qismlar tarixan tarkib topgan muayyan geografik sarhadlarga ega. «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi»dan o'quvchilarga ma'lumki, bunday tabiiy-geografik sarhadlar, odatda siyosiy-ma'muriy, iqtisodiy, etnik chegaralarga mos kelmaydi va ular bilan hech qanday bog'liq ham emas. Ular juda uzoq tarixiy-geologik (paleogeografik) rivojlanish davomida betakror tabiiy-xududiy hosila tariqasida shakllangan. O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasining qamrovi va chegaralari haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

O'rta Osiyo tabiiy-xududiy jihatdan Evrosiyo materigining shunday bir yaxlit va noyob tabiiy qurilmasiki, u boshqa tabiiy o'lkalardan tubdan farq qiladi. O'rta Osiyo materikning markazida, okeanlardan uzoqda, berk (Kaspiy—Orol—Balxash) havzada joylashgapligi, shimol va g'arb tomonga ochiqligi, sharq va janubdan qudratli tog' tizmalari bilan o'ralganligi o'lkaning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

O'lka chegarasining umumiy uzunligi 9950 km atrofida bo'lib, shundan 8150 km quruqlik orqali, qolgani esa suv orqali o'tadi. Suv orqali o'tadigan chegaraning asosiy qismi o'lkaning g'arbiga, ya'ni Kaspiy dengizi (1300 km) qirg'oqlariga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyo o'lkasining g'arbiy chegarasi janubda Kaspiy dengizining janubi-sharqiy chekkasidagi (Astrobod qo'ltig'i, 54° sh.u.) Kurd — mahalla qishlog'idan boshlanib, dengizning sharqiy qirg'og'i bo'ylab Mang'ishloq qo'ltig'iga qadar davom etadi. So'ngra g'arbiy chegara Mang'istovning shimoliy

etaklari, Doniztov chinki, Shogiray platosining g'arbiy qismi, Cho'chqa, Mug'ajar tog'larining suvayirg'ichi va Ural — To'rg'ay daryolari suvayirg'ichi bo'ylab Bredi shahrigacha davom etadi. G'arbiy chegaraning umumiy uzunligi taxminan 3750 km. Shundan 1300 km qismi Kaspiy dengizi qirg'oqiga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoning shimoliy chegarasi haqida har xil mulohazalar mavjud. Ba'zi olimlar, xususan, L. II. Korjenevskiy O'rta Osiyoning shimoliy chegarasini taxminan 48 sh.k. orqali, ya'ni Qozoqiston past tog'larining janubiy qismi orqali o'tkaziladi. O'rta Osiyo o'lkasining sharqiy va janubiy chegaralari deyarli tog'larning suvayirgach qismlaridan o'tadi. O'lkaning sharqiy chegarasi qora Irtish daryosining chap sohilidagi Serektitovi (690 m) dan boshlanadi. Negaki u o'lkaning eng sharqiy chekka nuqtasi bilan bitta meridianda (86°46' sh.u.) joylashgan. Serektitovidan boshlangan o'lkaning sharqiy chegarasi Saur, Sharqiy Torbog'atay, Urnashar, Jamo, Maylitov va Jung'oriya Olatovi tizmalarining o'q qismi bo'ylab o'tib, Ko'k ko'l (Demekpe) devonigacha janubi-g'arb tomonga yo'naladi. Umuman sharqiy chegara yo'nalishlarini keskin o'zgartirib to Pomir tog' tizimining janubi-sharqiy chekka qismidagi Beik dovoniga qadar quyidagi tog' tizmalarining o'rkachlari orqali o'tadi: Boroxoro, Iren-Xabarga, (Addikur dovoni- 2900 m), Norat, Xalqtog', G'alaba, Xon-Tangri tog' tuguni, Ko'kshaaltov (ko'kshagal- ko'k tosh degan ma'noda), Sariko'l tizmalari. O'lka sharqiy chegarasining umumiy uzunligi 2650 km ni tashkil etadi. Beik dovonidan (4665 m) boshlangan o'lkaning janubiy chetarasi, asosan, janubi-g'arb va g'arb tomonga yo'nalib, Kaspiy dengizining janubi-sharqiy chekka qismidagi Astrobod qo'ltig'iga tutashadi. Chegara bu yo'nalishda quyidagi tog' va tog' tizmalarining eng baland qismlari orqali o'tadi: Hindikush, Safedko'h (Paropamiz), Jahon, Nishopur (Ko'hi Mirobod, Ko'hi Shohjahon) Saroy, Elburs, Kun Gurgon tizmalari.

O'rta Osiyo xududining shimoliy va qisman janubiy chegaralari uncha egrilanmagan, lekin sharqiy chegarasi keskin egri-bugri yo'nalishlarni hosil qiladi. G'arbiy chegarasining Kaspiy qirg'oqlari ancha parchalangan bo'lsa, quruqlik qismi nisbatan uncha egri-bugri emas.

O'lkaning shimoliy chekka nuqtasi Ayritov 53°50' sh.k. va 68°30' sh.u. da, janubiy

chekka nuqtasi Safedko`h tizmasidagi Besha qishlog`i 34°30' sh.k. va 63°45' sh.u. da joylashgan. Shimoldan janubga tomon 2650 km ga cho`zilgan bo`lib, mo`tdil va subtropik iqlim (geografik) mintaqalarni qamrab oladi. O`lkaning g`arbiy chekka nuqtasi Tubqarag`ay burni 50°15' sh.u. va 44°37' sh.k.da, sharqiy chekka nuqtasi 86°40' sh.u. va 47°44' sh.k.da joylashgan. O`lkaning g`arbiy, sharqiy chekka nuqtalari oralig`idagi masofa taxminan 2800 km ni tashkil etadi.

O`rta Osiyo tabiiy-geografik o`lkasining Yer maydoni taxminan 3 mln 450 ming kv km ni tashkil etadi. Bu xudud g`arbiy Yevropadagi yer maydoni jihatidan eng katta bo`lgan Fransiyadan 6 marta yoki Germaniya yer maydonidan esa 11 marta kattadir. O`lka xududiga Buyuk Britaniya kabi davlatlardan 15 tasini, Belgiya kabi davlatlardan 128 tasini joylashtirish mumkin.

O`rta Osiyo o`lkasi katta xududni egallaganligi tufayli uning tabiiy sharoiti ham turlicha. Shu bois unda dengiz sathidan 132 m pastda joylashgan Qoragiyo (Botir) botig`i bilan birga dengiz sathidan 7690 m balandda turuvchi Tirichmir cho`qqisi mavjud, bu xol o`z navbatida, bir tomondan o`lkaning markaziy va g`arbiy xududlarida quruq va serquyosh jazirama issiq yoz bilan tavsiflanuvchi qumli cho`llar bilan band bo`lgan bepoyon tekisliklarning, ikkinchi tomondan, sharqiy, janubiy qismlarida yozda ham doimiy qor va muz bilan qoplangan g`oyat baland tog`li landshaftlarning shakllanishiga sababchi bo`lgan.

O`rta Osiyo tabiiy-geografik o`lkasi xududida Qozoqiston, O`zbekiston, Qirg`iziston, Tojikiston va Turkmaniston, qisman Rossiya, Xitoy, Afg`oniston, Eron kabi mustaqil davlatlar xududi joylashgan.

Tuproqlari. O`rta Osiyoning tabiiy sharoiti xususan, uning relyefi, yotqiziqklarining litologik tarkibi, iqlimi va o`simliklari makonda; o`zgaruvchandir. Ushbu xususiyat hududning tuproqlari ham turli tuman bo`lishiga sabab bo`ladi. Zero, tuproq hosil bo`lishi asosan mazkur tabiiy omillar ta'siriga bog`liq ekan, uning barcha xususiyatlari ularning xarakteri bilan belgilanadi.

Tuproqlarning kengliklar bo`yicha mintaqalanish xususnyatlari. O`lka hududi shimoldan janubga tomon uzoq masofaga cho`zilganligi bois xududning ko`proq tekislikdan (asosan, markaziy qismlarida) iboratligi, iqlimiy omillarning xuddi shu

yo`nalishda o`zgarishi va boshqa sabablarga ko`ra tuproqlarni kengliklar boyicha mintaqalanishi tipik ravishda ko`zatiladi. O`lkaning janubiy va o`rta mintaqalarida vegetasiya davrinng gidrotermik rejimi uchun ikkita bosh fazalarning mavjudligi, ya'ni bahorning nisbatan issiq va sernam, lekin qisqaligi, yozning juda ham issiqligi, qurug`ligi va uzoq davom etishi xarakterlidir. Qishda esa tuproqlarning muzlamasligi va qattiq sovuqning muddatda bo`lishi, goho keskin ravishda havoning isib ketishi tufayli tabiiy o`t o`simliklarning vegetasiyasi berishi sodir bo`lib turadi. Shimol tomon va tog` yonbag`irlari bo`ylab ko`tarilgan sari iqlimdagi mazkur yaqqol farqlar sekin-asta po`qolib boradi.

Iqlimiy va tabiiy sharoitning xususiyatlariga ko`ra o`lka hududida janubdan shimol tomon tekislikda cho`l-qum, taqirli, qo`ng`ir-bo`z, qo`ng`ir, kashtan kabi tuproq mintaqalari ajratiladi. Ular tarqalgan areallarda azonal omillar ta'sirida va daryo qayirlari hamda deltalarnda gidromorf tuproqlar (sho`rxok, o`tloq va boshqa uchraydi.

Balandlik bo`yicha tabaqalanish. Tog` yonbag`irlarida iqlimiy ozgarishlarning keskin farqlanishi, relyef va o`simlik dunyosini balandlik o`zgargan sari o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib borishi tufayli ular majmuasida tuproqlar ham tog` etagidan uning eng yuqori cho`qqisiga qadar turli o`zgarishlarga uchraydi.

Tyanshan va Pomir tog`liklarida quyidagi tuproq-o`simlik mintaqalarni ajratish mumkin: cho`l-dasht yoki adir, quruq, dasht, tog`-o`rmon, o`tloq-dasht, tog`-o`tloq va o`tloq-dasht subalp, tog`-o`tloq va o`tloq-dasht alp, baland tog`-dasht, baland tog`-cho`l, abadiy qorliklar va muzliklar.

O`rta Osiyoshg janubiy va sharqiy chekkalarndagi tog`larnng uncha ham uzoqqa (kengliklar bo`yicha) cho`zilmaganligi hamda ushbu mintaqalarning ba'zan turli balandliklarda (bu borada tog` yonbag`irlarining quyoshga qaragan yoki teskarilishiga ham bogliq) uchrashi yoki kambarroq holda kuzatilishi, yoki bir mintaqaning boshqa mintaqaga kirib borishi tez-tez uchraydi. Shimoldagi ba'zi mintaqalar janubdagi ayni shu mintaqalarga nisbatan balandlik bo`yicha pastroq uchrashi aniq, ya'ni janubiy tog`larda ular nisbatan balaadda qayd etiladi.

Qozog'istonning sharqiy qismidagi tog' bag'rlarida (Saur-Tarbog'atoy va Jung'oriya Olatovi tizma tog'lari) tuproqlarning balandlik bo'yicha mintaqalanishi janubdagi tizmalarda tuproqlarning mintaqalanishiga qaraganda ancha farq qiladi. Bu hududlarda tog' etaklari va past tog'larda faqat bu mintaqqa, ya'ni tog'-kashtan va tog' qoratuproklari ajratiladi. Tog'-kashtan tuproqlari quruq dasht tekisliklaridagi tipik kashtan tuproqlarning davomidir. Undan yuqorida tog'-o'tloq qora tuproklarga o'xshash va bo'z-o'rmon tuproqlari, o'rtacha balandliklarda va undan yuqorida esa subalp va alp tuproqlari tog'-o'tloq mintaqasi mavjud.

Tuproq hosil bo'lishida nurash hodisasining ahamiyati katta. Tog' jinslari ustida tuproq to'g'ridan-to'g'ri vujudga kelmaidi, tuproq tarkib topishi uchun tog' jinslari ustida ma'lum qalinlikda nurash qobig'i vujudga kelishi shart. Nurash qobig'ida turli mikroorganizmlar, o'simlik qoplami hamda suv, kislorod, is gazi va boshqalarning ta'siri natijasida tuproq shakllanadi. Cho'l mintaqasida yog'in-sochinning nihoyatda kamligi (yiliga 80—100 mm) va bug'lanish miqdorining kattaligi tufayli fizik-kimyoviy nurash sodir bo'lishi uchun tegishli imkoniyatlar kamligidan darak beradi. Lekin kun bilan tun o'rtasida havo harorati farqining kattaligi, ayniqsa, yoz bilan qishdagi havo xarorati amplitudasining kattaligi o'lkada nurashning ustun bo'lishiga olib keladi. Mazkur nurash natijasida o'lkaning cho'l mintaqasida asosan chang-shag'al—eng mayda shag'al tarkibidagi elyuviy vujudga keladi. A. G. Chernyaxovskiy (1965) bo'yicha granitda harorat o'zgarishi bilan bo'ladigan nurash jarayonida mayda shag'al tarkib topadi. Slanes, ohaktosh, gil va gilli alevritlarning shu turdagi nurashga berilishi natijasida changli shag'al allyuviysi vujudga keladi.

Nurash hodisasi baland tog'larda cho'l mintaqasiga nisbatan kuchliroq sodir bo'ladi. Sharqiy Pomirda mazkur hodisa keskin kontinental va quruq iqlim hamda abadiy muzloq sharoitda yuz beradi. Sharqiy Pomirda yog'in-sochin yiliga o'rtacha 60 mm, haroratning sutkalik va yillik tebranish keskin tarzda bo'lishi hududda oddiy hodisadir. Lekin yozda kunduz kuni tog' jinslari ustida haroratning $+50^{\circ}$ gacha qizishi va tunda esa muzlashi tufayli nurash kuchli tarzda sodir bo'ladi. Sovuqdan nurashning yuz berishi tufayli Sharqiy Pomirda yirik go'la tosh va yirik,

shag'al toshlarning bisyorligiga olib kelgan. Lekin mayda yoriqlarda suvning to'planishi va kechalari ularning muzlashi yirik g'ola toshlar va shag'allarning ham o'z navbatida maydalanishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonda chang-shag'al-g'ola tosh elyuviysi vujudga keladi.

Baland tog'likning sovuq cho'l sharoitida slyudaga o'xshash alyumosilikatlarning kuchsiz gidrataqiyaga berilishi va karbonatlarning chiqib ketishi sodir bo'ladi. Buning natijasida shag'alli jinslar tarkibidagi gidrataqiyaga beriluvchi ba'zi minerallar (biotit, xlorit va h.k.) namgarchilik ko'proq bo'lganda maydalanadi, karbonatln jinslarning (nurashi natijasida ohakli yoki dolomitli uchuvchi mahsulotlar tarkib topadi. Tekislikdagi cho'llarga butunlay teskari ravishda, nuragan jinslar og'irlik kuchi va yog'inlarning ta'siri tufayli yonbag'ir qiyaligi bo'yicha pastga tomon harakatda bo'ladi, buning oqibatida nurashga uchragan jinslarning yuza qismi doimo ochilib turadi va bu jarayon to'xtovsiz davom etadi. Mayda jinslar va changlarning suv bilan yuvilib ketishi tog' etaklari va tekislikda tuproq hosil bo'lishiga faol ta'sir etadi.

Nurash jarayonida na faqat tuproq, qum, qumloq, qumoq va boshqa cho'kindi jinslar, shuningdek gips, karbonatlar va suvda eruvchi tuzlar ham vujudga keladi. Tekisliklarda ro'y beradigan nurash elyuviy xarakterida bo'lganligi tufayli, mazkur moddalar o'sha qobiqda qoladi, ba'zan esa shamol yoki mahalliy oqim ta'sirida boshqa joylarga tashilishi ham mumkin. Buning natijasida ular ba'zan butun xududga tarqaladi.

Cho'l va tog' etaklaridagi tuproqlar asosan birlamchi sho'rlangan. Bu hol asosan tuproqlarning ona jinslari tarkibida tuzlarning mavjudligi, tuproq ostidagi yotqiziqlarda tuz, gips, karbonatlarning mavjudligi va ularnng grunt suvlari harakati natijasida tuproq qatlamlarida to'planishi yuz bergan. Turon pasttekisligi oligosen va neogen davrlarda bir necha dengiz transgressiyasini boshdan kechirgan, buning natijasida dengiz yotqiziqlari, ayniqsa, gil, ohaktosh, mergel, qumtosh tarkibida gips, karbonat va tuzlar arid sharoitda vujudga qolgan. Plato, qir, balandliklar va hatto Qozog'iston past torlarida tog' jinslarn turli darajada

sho`rlangan. Buning oqibatpda, ular ustida tarkib topgan tuproqlar ham u yoki bu darajada sho`rligi, ba'zan gipsli qatlamining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Inson mehnat faoliyatining ahamiyati. O`rta Osiyo qadimdan sug`oriladigan dehqonchilik va chorvachilik o`lkasi. Murg`ob va Zarafshon daryolari etaklarida sug`oriladigan dehqonchilik miloddan avval 4000 yil burun rivojlanib kelayotganligi tarixdan ma'lum. Uzoq yillar mobaynida dehqonchilikning taraqqiyoti vohalarni tarkib topishiga olib keldi. Vohalarda sug`oriladigan dehqonchilikni rivojlanishi tabiiy komponentlar, ayniqsa, landshaftlarning tubdan o`zgarishiga olib kelgan. Shular qatori tuproq ham chuqur o`zgarishlarga uchragan.

Voha tuproqlarining fizik va kimyoviy xususiyatlari chuqur o`zgarishga uchraganligi va ularda yangi madaniylashgan xislatlarning tarkib topganligi bilan tabiiy holda rivojlanayotgan cho`l tuproqlaridan ancha farq kiladi. Voha tuproqlarida turli qalinlikda agroirrigasion qatlamning vujudga kelganligi ularning eng dastlabki farqi hisoblanadi. Agroirrigasion qatlam Xorazm, Buxoro vohalarida 2—3 m, Zarafshon vohasida 2—2,5 m dan ortiq, Farg`ona, Toshkent, Shahrisabz vohalarida 1,5—2 m qalinlikda vujudga kelgan. Mazkur qatlamning yuzaga kelishi oqiziqqa boy suv bilan sug`orish natijasida tuproq ustida yiliga o`rtacha 0,5—1 mm qalinlikdagi qatlamning tarkib topishi, bundan tashqari, yerlarning hosildorligini oshirish maqsadida ularga eski paxsa devor, guvala, tom tuproqlarining solinishi bilan bog`liq.

O`simliklari. O`rta Osiyoda relyef, tuproq va iqlimiy sharoitlarning kengliklar va balandliklar bo`yicha xilma-xilligi o`simliklar olamining juda ham boy bo`lishiga ta'sir ko`rsatadi.

Hududning issiqlik va namlik nisbati o`simlik o`sishi uchun asosiy omil hisoblanadi. O`rta Osiyoda tekisliklar va tog` yonbag`irlari bo`yicha namlik hamda issiqlikning o`zgarishi qonuniy bir hol. O`lkaning janubiy qismida yog`inlar davriylik xususiyatiga egaligi va shimol tomon bu holatning asta-sekin yo`qolib borishi hamda janubida havo haroratining yozda juda issiq, qishda iliqroq, shimolga tomon esa qishda haroratning kontinentalligi ortib borishi, tuproqning

muzlashi tufaili o`simliklarning biologik faolligi turlicha bo`ladi. Ushbu ekologik sharoitni baholash shuni ko`rsatadiki, janubda namlik taqchilligi natijasida o`simlikning unga nisbatan moslashuvi, haroratning vegetasiya davrida ko`tarilib ketishiga turli moslashuv xislatlarini ishlab chiqishi bilan o`shishni davom ettirishi ko`zatiladi. Cho`l mintaqasining Qozog`iston qismida yilning sovuq davri yoki tog` tizmalarining eng yuqori yonbag`irlarida mazkur ekologik sharoitga moslashuv, shuningdek ularning zichligi, bo`yi, tashqi ko`rinishida turli adaptiv o`zgarishlar sodir bo`ladi.

Ushbu keskin ekologik va bioiqlimiy o`zgarishlar chegarasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur chegara M. G. Popov, E. P. Korovin va uning izdoshlari tomonidan asoslangan. Mazkur chegara Qorabo`g`ozgo`l ko`rfazining janubiy qirg`oqidan boshlanib Qizil O`rda shahri tomon o`tadi, keyin Qoratov tizmasining suvayirg`ich qismidan Talas Olatovi, Uzunaxmattov, Farg`ona tizmalari, janubda Pomirning Fedchenko muzligidan janub tomon yo`naladi (yoki Pomir bilan Badaxshon chegarasi orqali o`tadn). Ushbu chegaradan janubda O`rta Osiyo yoki Turon, shimolda esa Markaziy Qozog`iston hududlari joylashgan. Turon pasttekisligida mazkur chegara aslida shimoliy va janubiy tipdagi cho`llarni ham ajratib turadi. O`rta Osiyo nihoyatda issiqligi bilan ajralib turadi. Qishda havo harorati quruq va iliqroq, tuproq deyarli muzlamaydi. Shimoliy, ya'ni Markaziy Qozog`iston provinsiyasida yog`in-sochin yil davomida deyarli bir tekis taksimlangan, yoz issiq, qish esa keskin kontinentalligi bilan tavsiflanadi.

Turon provinsiyasining gidrotermik rejimi va boshqa xususiyatlariga ko`ra unga Eron, Kichik Osiyo o`lkalari yaqinligini ko`rsatib o`tish joiz. Bu jihatdan janubiy cho`l mintaqasiga quruq kontinental subtropik iqlim xosligi barcha iqlimshunoslar tomonidan tan olingan. I. P. Gerasimov Turon provinsiyasini keng Eron-Arabiston oblastining bir qismi sifatida qaraydi. Lekin Markaziy Qozog`iston provinsiyasinnng gidrotermik rejimiga ko`ra mo`ttadil mintaqadagi o`lkalarga yaqinligi asoslangan.

Cho`l miltaqasida o`simliklarning o`zgarishiga qarab janubdan shimolga tomon quyidagi bir necha o`simlik kichik mintaqalarini ajratish mumkin: I) cho`l-qum va

taqirli tuproqlardagi efemerli daraxtzorlar; 2) bo`z-qo`ng`ir va cho`l-qum tuproqlardagi efemerli cho`l; 3) bo`z-qo`ng`ir tuproqlardagi sho`ra-shuvoqli cho`l; 4) Qo`ng`ir tuproqlarda boshqali o`simliklar bilan sho`rali shuvoqzorlar. Mazkur mintaqalanish eng ko`p tarqalgan o`simlik va tuproqlarni qamrab olgan variant bo`yicha ajratilgan.

O`simliklarning tog`yonbaqirlari bo`yicha mintaqalanishi tuproqlar kabi tabiiy qonuniyatlarga bog`liq. Bu borada gidrotermik rejimning balandlik oshgan sari o`zgarishini xisobga olish birinchi darajali ahamiyatga ega, keyingi navbatda relyef va tuproqlarning hamda geologik tuzilish ta`siri ustun. O`simlik olamining balandliklar bo`yicha mintaqalanishida hozirgacha anchagina ilmiy tajriba to`plangan. O`rta Osiyo tog` tizmalarida o`simliklarning mintaqalanishi E. P. Korovin (1958, 1968), K. 3. Zokirov (1971), L. N. Sobolev (1969) va boshqalarning ishlarida chuqur asoslanilgan. Ko`pgina geobotaniklar, geograflar balandlik bo`yicha mintaqalanishda asosan tuproq va relyef, iqlimni asos qilib oladilar. Bu usul o`z-o`zidan ravshai, chunki o`simliklarning balandlik oshgan sari o`zgarishi ayni mazkur omillar xarakterining o`zgarishiga bog`liq.

K. 3. Zokirov o`simliklarni mintaqalanishida boshqacha usulni qo`llagan. U xalq orasida keng qo`llaniladngai tushunchalar, ya`ni «cho`l», «adir», «tog`», «yaylov» ushbu mintaqalanishda ishlatilishi ko`p jihatdai ma`qulligini asoslab bergan. Bir jihatdan mazkur taklif o`rinli, chunki qisqa va keng ma`noli ushbu tushunchalar foydalanish bo`yicha ham ko`pgina qiyinchiliklardan xoli qiladi.

O`simlik olaminnng inson ta`sirida o`zgarishi O`rta Osiyoda boshqa o`lkalar qatori tarixiy davrlarda ancha o`zgardi, so`nggi 40—50 yil mobaynida tekislik va tog` o`simliklarining yoqilg`i, qurilish materiali, yaylov maydoni, dorivor maqsadlarda foydalanishi iatijasida ularning mamdoqlari jiddiy ravishda qisqargan. To`kay, ayniqsa, daraxtli to`qaizorlar, oq va qora saksovullar, cherkez, shuvoq, tog` yonbagprlarnda avvalo archa, yong`oq, o`rik, olma, tog` olchasi va boshqa daraxtlari yoqilg`i sifatida qirqilishi ularning maydoni katta miqdorda qisqarishiga, siyraklashuviga olib keldi, buning oqibatida tabiiy yaylovlar degradasiyaga uchradi, qiya yonbag`irlarda eroziya, qumli cho`lda defalasiya kuchaydi. Tog`li

hududlarda dahshatli sel, surilma, qor ko'chkilari kabi ofat keltiruvchi hodisalar tez-tez yuz bera boshladi. Cho'llarda esa ko'chib yuruvchi qum mamdonlarining kengayishi, mahsuldor o'tlar va butalarni yo'qolishi yaylovlarning begona o'tlar (isiriq, selen va boshqa) bilan qoplanishini tezlashtirdi.

O`simlik turlari va ulardan foydalanish.

O'rta Osiyo o'lkasi o'simlik olamiga boy. Faqatgina Turon past-tekisligidagi cho'llarda 1200 oliy o'simliklar turi (B. A. Bikov, 1973) mavjudligi qayd etilgan. Qoraqumda 700 tur, O'zbekistonda yovvoyi o'simliklarning 3737 turi (3. A. Maylun, 1971), Qozog'istonda 4474 turi mavjud (V. A. Bikov, 1969). O'simliklar turlari orasida asosan o't o'simliklari turlari (O'zbekistonda 56% ko'p yillik va 18,9% bir yillik) ko'pchilikni tashkil qiladi.

O'simliklar tabiiy muhitning rivojlanish davrlarida doimo o'zgarib kelgan: iqlim, tuproq, relyef sharoitlari, grunt suvlari rejimi geologik davrlarda turli yo'nalishlarda rivojlanib borgan va bu borada mavjud bo'lgan ustuvor tendensiyada turli transformasiya va suksessiya bosqichlarini bosib o'tadi. Albatta, ushbu rivojlanish bosqichlarida o'simliklarning hududning ekologik sharoitiga qarab ma'lum turlari tarkib topgan. O'simlik turlarining o'zaro almashib kelishi landshaft o'simliklarini xarakterlandi.

O'rta Osiyo o'lkasining o'simlik dunyosi nihoyatda rang-barang va bu hududda ham tekislik, ham tog'lik guruhlar mavjudligi e'tiborga olinsa, ushbu murakkab bulgan ekologik sharoitda ularni ma'lum bir turlarga ajratgan holda o'rganish hamma jihatdan ham ilmiy va amaliy ahamiyatga ega, Ushbu tasniflashni tarixiy jihatdan o'rganish va taxlil qilish natijalari R. D. Melnikova (1971), L. Ya. Kurochkina (1978) va boshqalarning ilmiy ishlarida chuqur va atroflicha o'rganilgan.

O'simliklarni tasiflash E. P. Korovin, P. N. Ovchinnikov, N. I. Rubqov, Q. V. Stanyukovich, B. A. Bikov, I. Ya. Kurochkina va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. E. P. Korovinning ko'p yillik ilmiy tajribasi bu borada etarli darajada chuqur va salohiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. U o'simliklarni tasiflashda asosan ekologik-tarixiylik tamoniga amal qilgan holda hududning tabiiy-geografik

muhitga bo`linishi (genezisi va vujudga kelishi) va shu asosda o`lkaiig geologik davrlarda rivojlanishi asosida flora va o`simliklarni tabaqalanishini amalga oshirgan. Shu jihatdan qaragapda, deb ta'kidlaydi E. P. Korovin, florogenez va geogenez bir-birlarida» ajratib bo`lmaydi, ular asosida butun bir adaitasiya qoiupi yotadi.

E. N. Korovinning o`simliklarni tasiflash tamoyli asosida ikkita yirik monografiya («Srednyaya Aziya», 1958, 1968) da o`simliklar olami turlar bo`yicha to`liq tahlil" qilshgan. Keyingi yillarda e`lon qilingan tasifash tamoyillari ularning avval yaratgan ilmiy yondashuvidan mutloq farq qilmaydi.

Cho`l mintaqasining tekisliklari va past tog`larida quyidagi o`simlik turlari ajratiladi, (Korovin, 1968): 1) cho`l daraxtzorlari, 2) psammofitli butali cho`l, 3) o`simlik bilan siyrak mustahkamlangan va yalang`och qumlar (barxanlar), 4) shuvoqli cho`l, 5) sho`rali cho`l, 6) sersuv sho`rali cho`l, 7) bir yillmk sho`rali o`simliklar, 8) taqirlardagi lishaynik va ko`k-yashchl suvo`tlar, 9) to`qaylar, 10) o`tloq va botqoqlar. Tog` oldi tekisliklari va tog`larida, 11) subtropik dasht, 12) dasht, 13) tikanli o`tlar, 14) tragakaitlar (kserofitli yostiqsimonlar), 15) bargi to`kiladigan kserofitli butalar, 16) bargi to`kiladigan kserofitli siyrak o`rmoizorlar, 17) bargi to`kiladigan mezofit butalar, 18) keng bargli va maida bargli o`rmonlar, 19) ignabargli o`rmonlar (tayga), 20) archali siyrak o`rmonlar, ba'zan o`rmonlar va er bag`irlab o`suvchi archalar, 21) tog` o`tloqzorlari va bo`sh erlar, 22) baland tog` yostiqsimonlari, 23) baland tog`ning siyrak o`simliklari, 24) voha o`simliklari.

Ushbu o`simlik turlari joylarning tabiiy sharoitlariga ko`ra har xil kattalikdagi areallarni egallaydi.

Turli tabiiy va antropogen sabablarga ko`ra fitosenozlarda o`simlik turlarining o`sishi uchun qulay sharoitlar yaratilsa, boshqa hududlarda aksincha noqulay sharoit tarkib topishi sababli boshqa o`simlik turlari bilan almashib bormoqda (Orol bo`yi, Balxash bo`yi Sarisuv va Chu daryolarining quyi qisimlarida), chunonchi, daraxtli va o`tli to`qayzorlar butali to`qay va galofitlar bilan o`zaro o`rin almashmoqda.

Tekislik o`simliklari. Arid va ekstraarid iqlimiy sharoitlar tekisliklarda o`simlik turlarining o`shishi uchun, asosan qurg`oqchil va yuqori darajadagi havo harorati mavjud bo`lishini ta'minlaydi. Lekin bu hol butin tekislik bo`yicha umumiy sharoitni tashkil qilgan holda relyef xususnyatlari hamda grunt suvlarining sathi, tuproqlarning turlicha bo`lishi o`simlik o`shishining ekologik sharoitlari yanada murakkab bo`lishiga olib keladi.

O`lkaning janubiy va markaziy zonalarida yog`in-sochinning mavsumiy bo`lishi tufayli ko`proq bahor oxirida vegetasiya davrini tugatib, yozgi, ba'zan qishki uyquga ketadigan efemer o`simliklari tarqalgan. Cho`lda efemerlardan arpag`on, yaltirbosh, chitir momaqaltiroq, lolaqizg`aldoq, itgunafsha, ko`kboshchitir va boshqalar keng tarqalgan.

Qisqa vaqt mobaynida o`suvchi o`simliklar vakiliga efemeroidlar ham xos. Ular asosan kuz, qish va bahorda vegetasiya davrini o`tab, yozda uyquga ketadi. Ko`pincha vegetasiya bahorda faolroq bo`ladi. Ushbu o`simlik vakillariga iloq, shirach, qumpiyoz, mingtomir, tuyayaproq, qavariq, sassiqkuray va boshqalar mansub. Efemeroidlar yilning nam davrlarida o`snb, qurg`oqchilik faslida vegetasiyani tugatadigan ko`p yillik o`t o`simliklari hisoblanadi.

Sho`r muhitga chidamli o`simliklar o`ziga xos morfologik shakl va modda almashuviga ega. Ularning xarakterli xususiyatlaridan biri organlarining go`shtdorligi, tanasidagi namlikni juda ham ehtiyotkorlik bilan sarf qillshi, barglarining bug`latishni kamaytirishga moslashganligi, barglari va tanasidan tuz chiqarib turishi kabi xislatlarga ega. Ular (galofit) sho`r grunt suvlariga ham chidamli. Galofitlarga shoqilak, sarisan, qorabaroq, qizilshura, kermak sho`rxoklarda keng tarqalishi bilan qurg`oqchilikka va issiqqa chidamlidir.

Ch o` l - d a r a x t z o r l a r i. O`rta Osiyoda cho`l daraxtzorlari keng tarqalgan bo`lib, ular kserofit, ko`pincha daraxtsimon butalardan iborat. Biologik xususiyatlariga ko`ra mo`'tadil issiq iqlim o`simlnklar, ya'ni mezofitlar guruhiga xos. Vegetasiya davri uzoq davom etadi, kech kuzda meva tugadi. Ko`pchilik edifikatorlarda barglarning rosmana ravishda bo`lmasdan, ignasimon shaklda bo`lishi kuzatiladi, bu xislat bug`lanishni kamaytirishga moslashtiradi.

Mezotermlarning ekologik yashash sharoitlari juda xilma-xil xarakterdagi qumliklardan to gipsli bo`z-qo`ng`ir hamda sho`rxoklarda o`shish xususiyatiga ega. Cho`l daraxtzorlari ko`proq qumli va gilli tekisliklar, platolarning pastqamliklarida oq va qora saksovullardan iborat bo`lib, ular cherkez, qandim, chog`on va borjok bilan aralash holda uchraydi. Ular odatda bir yarusni tashkil qilgan holda, II yarusda yarim butalar, ba'zan butalar mavjud bo`ladi, chunonchi shuvoqning ba'zi turlari (yovshan, kermak — jusan va boshqa.), singren (egriichak), mingbosh va boshqalar. Uchinchi yarusda turli efemer va efemeroid o`t (maysa) o`simliklar mavjud bo`ladi.

Cho`llarda, xususan cho`l-qum tuproqlar va kumliklarda oqsaksovulzorlar keng maydonlarni egallaydi. Oqsaksovul marzali va ko`zanakli hamda do`ng qumlarda ularning yuqoriroq qismlarini xush ko`radi, past joylar va botiqlarda ular siyrak. Oq saksovulzorlar ostida efemer va efemeroidlar zichroq o`sadn. Ayniqsa, iloq oqsaksovul bilan sof assosiasiya vujudga keltiradi. Shuningdek, oqsaksovul bilan mayda selen, selen, shuvoq ham birga o`sadi.

Qora saksovul oq saksovulga nisbatan kichikroq areallarni egallaydi. U asosan pastqam erlarni, ya'ni taqirli, qoldiq sho`rxokli, tub jinslar yer betiga yaqinroq joylashgan tuproqlarni, xullas sho`rlangan erlarni ma'qul ko`radi. Qoraqum, Qizilqum, Sari-Ishiqotrov va boshqa qumli cho`llarda marzali qumlarining oraliqida sho`rxokli, taqirli tuproqlar, Orolbo`yi, Kaspiybo`yi, Balxashbo`yi sho`rlangan yerlarda keng tarqalgan, Janadaryo o`zanining ikki chekkasida qora saksovulzorlar mavjud.

Pssammofitli butalik cho`l. Cho`l mintaqasida qumliklar atrofida, ba'zan ulardan ham uzoqroqda, pssammofitli buta va yarimbutazorlar keng tarqalgan. Buxoro, Qarshi, Ashgabad vohalari, Kopetdog`ning etaklarida, hozirda tashlandiq, holga kelgan qadimgi vohalar o`riida (Meshxed-Messarian pasttekisligi), ko`hna daryolarning qadimgi allyuvial tekisliklari, Amudaryoning o`ng sohili va boshqa joylarda mazkur o`simliklar ko`proq uchraydi.

Qumni sevuvchi o`simliklar tarqalgan yaylovlarda qumliklar o`simliklar bilan unchalik mustahkamlanmagan va xarakatdagi qumlar mavjud. O`simlik qoplamida

siyrak buta va yarimbutazorlar ko`pchilikni tashkil qiladi. Rixter va Paleskiy cherkezlari, qandimzorlar (asosan qizil qandim, oq qandim, juzgun), singrenzorlar, qum aksiyasi keng tarqalgan. Qum tez-tez harakatda bo`lishi sababli o`t o`simliklar siyrak, birmuncha selen (seleu, qumarchiq) va boshqa turlar o`sadi. Iloq siyrak holda uchraydi. Yaylovlarning mahsuldorligi gektariga o`rtacha 1 g dan kam. Kam mustaxkamlangan va harakatdagi qumlar (barxanlar), qumli cho`llarda, ko`proq vohalar yaqinida yoki ularga tutash bo`lgan qumliklarda to`xtovsiz qo`y boqish, daraxt va butalardan yoqilg`i sifatida foydalanish tufayli kumlarning sathi o`simlik qoplamidan xoli bo`lishi bilan shamol xarakatiga faol berila boshlaydi. Qumlar shamol yo`nalishi bo`yicha harakat qilishi joylarda qum uyumlarini vujudga keltiradi. Qumlarning to`xtovsiz xarakat qilishi natijasida pssammofitlarning urug` orqali ko`payishi murakkablashadi. Shunga qaramasdan juda siyrak holda erkek selen, qum akasiyasi va boshqalar o`sadi. Tuproqda namning taqchilligi sababli o`simliklar ildizlari uncha chuqurga kirmay yon tomonlarga uzun ildiz otadi. Bu hol yog`inlarning qumga kirgan qismidan ko`proq foydalanishga imkon beradi; boshqa ba'zilar (qandim) tuproqqa chuqur kirib boradi.

Harakatdagi qumlarda siyrak tarzda konol, karelin, leman qum suyagi, cherkez, ba'zan isiriq zich o`sadi. Yaylov chorvachnligida ularning maxsuldorlngi juda ham kam.

Shuvoqli cho`l. Tekisliklarning baland kismlarida, qirlar, plato, qoldiq balandliklar, tog` etaklarida, ba'zan baland tog`lardagi tekisliklarda shuvoqzorlar katta maydonlarni egallaydi. Ushbu hududlarda ko`proq bo`z-qung`ir tuproqlar hukmron, kamroq taqirsimon, cho`l-qum tuproqlar (ularda tub jinlar yer betaga yaqin turadi) shag`al aralash holda keng tarqaladi.

Tog` etaklarida shuvoqli cho`llarning edifikatorlari bo`lib yovshan (oqjusan), kemrud, massaget, badxiz, qum shuvoqlari xizmat qiladi. Janubiy cho`llarning tog` etaklarida qorajusan, Ziber shuvoqi katta maydonlarni egallaydi. Ba'zan shuvoqzorlarda keurek, izen, boyalichlarning ayrim areallari aralash holda

uchraydi. Shuvoq guruhlarining quyi yarusida ko`p yillik efemer, efemeroid o`simliklar bir yillik sho`ralar bilan birga uchraydi.

Shuvoqzorlar O`rta Osiyo cho`llarida ma'lum bir qonuniyat asosida tarqalgan. Chunonchi, chalovli shuvoqzorlarda dasht xususiyatlarining ko`pligi boshlanadi. Mazkur shuvoqzorlar Ustyurt, Markaziy Qizilqumda ko`proq tarqalgan. Efemerli va efemeroidli (qo`ng`irbosh, iloq va boshqa.) shuvoqzorlar ko`proq janubiy cho`llarda hukmron. Shuvoqli va shuvoqli sho`rali yaylovlarni ikki guruhga bo`lish mumkin; tog` etaklari va allyuvial tekisliklar hamda baland platolar. Tog` etaklari va allyuvial tekisliklarda taqirsimon hamda och bo`z-tuproqlarda shuvoq ko`proq, sho`ralar goho aralash uchraydi, efemerlar hissasi nisbatan ko`p. Ushbu guruhdagi yaylovlar Kopetdog`, Nurota, Tomditov Markaziy Qizilqum tog` etaklarida, Chordara tekisligida keng tarqalgan. Platolarda sho`ralar bilan birlikda shuvoqzorlar aralash o`sadi. Bu holda shuvoq ko`proq pastqam joylarni egallaydi. O`rtacha mahsuldorlik gektariga 2—2,5 g- ni tashkil etadi.

Sho`rali cho`llar. Cho`l mintaqasining qirlik, plato, qoldiq tog`larida, tub jinslar yer betiga chiqqan yoki yaqin joylashgan xududlarida ko`p yillik yarim butalar-sho`ralar katta joylarni egallaydi. Biologik tabiati jihatidan sho`ralar mezoterm guruhiga oid, vegetasiya davri uzoq davom etadi, yoz oxirlarida meva tugaydi, yozning eng issiq va quruq davrida barglari qisman to`kiladi. Sho`ralar tuproqda tuzning asosiy qismini biroz pastda (20—50 sm) joylashishini ma'qul ko`radi, gipsli tuproqlar, chunonchi bo`z-qo`ng`ir tuproqlarda keng tarqalgan. Sertoshloq, ba'zan taqirli tuproqlarni ham egallaydi. Ustyurt platosi, Oqchadaryo deltagi, Markaziy Qizilqumdagi qoldiq tog`larning yonbag`irlari, allyuvial shleflari, Tuarqir, Mang`ishloq past tog`lari va qirlarida yarim butali sho`ralar katta maydoilarni band qilgan.

Sho`rali cho`llarning asosiy edifikatorlari bo`lib boyalich (boyalish, oq boyalish), kiyruk (tatir), tereskey, buyurgun, (qorasaksovul va boshqalar xizmat qiladi. Mazkur o`simliklar sho`radoshlar oilasiga mansub. Yuqori yarusda sho`radoshlar, pastki yarusda efemer va efemeroidlar o`sadi, ba'zan lishayniklar qoplami mavjud bo`lishi mumkin. Efemerlar asosan sho`rga chidamli turlardan

iborat, chunonchi, arpaxon, babuna, ko`ztikon, hlsaki zira, quyontovoq va boshqalar.

Shimoliy areallarda ko`proq boyalich va keyrukzorlar hukmron, ba'zan chalov aralash o`sadi, janubiy hududlarda keyrukzorlar efemerlar bilan birga tarqalgan. Sho`rali cho`lda yaylovlarning mahsuldorligi gektariga o`rtacha 1- 1,5 g ni tashkil qiladi. Shuvoqzorlar aralash mavjud bo`lgan joylarda yaylovlar yil davomida, tatir, boyalich tarqalgan yaylovlarda kuz va qishda foydalanilishi mumkin.

Sersuv sho`rali cho`llar. Grunt suvlari sathi yer betiga juda yaqin va ularning minerallashuv darajasi nihoyatda yuqori bo`lgan hamda tuproq sho`rxokligi bilan ajralib turadigan joylarda o`ziga xos yarim buta va butalar tarqalgan, ular mezoterm o`simliklariga mansub, ekologik jixatidan kserogalofit (ya'ni qurqokchilikka va sho`r muhtga chidamli), ba'zilari gidrogalofit (sho`r grunt suvlari va tuproqqa moslashgan) bo`lganligi tufayli botiqlardagi sho`rxoklarda, dengiz hamda ko`llarning qurigan qismlarida katta maydonlarni egallaydi.

Galofitlar fiziologik xususiyatlarga ko`ra ikki guruhdan iborat: 1) ba'zi o`simliklar assimilyasiya organlarida ko`p miqdorda tez eriydigan (xlorid, natriy, sulfat va boshqa.) tuzlarni to`playdi, shuning uchun ham hujayralarining sharbati juda katta osmatik bosimga ega bo`ladi, bu xususiyat nafaqat sho`r tuproqda o`shishga imkon beribgina qolmay, balki yuqori darajadagi havo haroratiga va havoning quruqligiga nisbatan chidamliligini oshiradi. Chunonchi, sarisazan, qorasho`ra, kermak va boshqa, 2) boshqa bir guruhdagi o`simliklar tanasida kamroq tuz saqlashi bilan birga maxsus bezlari hujayralardagi tuzlarning ortiqchasini tashkariga chikaradi, mazkur tuzlar ularning barglarida to`planadi va keyin tuproqqa tushadi. Masalan, yulg`un, gemelin kermagi, Kaspiy kermagi, chair.

Orol dengizining qurigan qismi, Amudaryo, Sirdaryo deltalarining cho`llashishga berilgan hududlarida, Kaspiy dengizi sohilida, Tuarqir, Uzboydagi botiqlarda sersuv sho`ralar goho sof assosiasiya hosil qiladi. Ularda grunt suvlari sathini joylashishiga qarab qora va qizil sho`ra, sarisazan (0,5 m dan pastroq), Qopayapok (2 m dan pastda), yulg`yH (1,5-2 m atrofida), kermak o`sadi. Tuproqda tuz miqdori

3-10%, ba'zan 15% dan ham ko'p bo'lishi mumkin. Sersuv sho'rali yaylovlarning chorvachilikda unchalik ahamiyati yo'q. Qishda faqat tuya oziqlanishi mumkin.

Bir yillik sho'rali cho'llar. Kserofit va kserogalofit guruhiga oid sho'ralar, odatda vohalar atrofida, ikkilamchi sho'rlanish natijasida ishdan chnqqan sug'oriladigan yerlar, botiqlardagi sho'rxoklar va ular atrofida, Orol dengizining qurigan qismida, Amudaryo, Sirdaryo, Chu, Sarisuv, Ili daryolariniig cho'llashishga berilgan hududlarida, Kaspiybo'yi tekisligi, Qorabo'g'ozg'o'l, Uzboy chekkalaridagi o'tloq, marshli, tipik sho'rxoklarda keng tarqalgan. Sho'ralar erta bahorda vegetasiya davrini boshlab, butun yoz bo'yi rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi va kuz oldida meva tugadi, ba'zan kech kuzda ham vegetasiya davom etadi. Ularga turkman sho'ragi, imliqko'z, qarelin hardoni, to'rg'ayo't, donasho'r va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ularga joylarning tuproq iqlimi gruntlarining sho'rlik rejimiga qarab yarim buta va yirik butalar ham qo'shib o'sishi kuzatiladi. Bir yillik sho'ralar kuz-qishda foydalanadigan yaylov sifatida ma'lum. Mahsuldorligi yog'in-sochining miqdoriga ko'ra gektariga 1-5 q gacha o'zgaradi.

To'qaylar. Daryolarning quyi qayirlari, del'talari odatda daraxt-butali va o'tli to'qayzorlar bilan bandligining tabiat hodisasi. Lekin keyingi vaqtlarda daryolar suv rejimining tartibga solinishi, sug'orishga ko'plab suv sarflaiishi tufayli Daryolarning to'lib oqishiga chek qo'yilishi sababli ia ayniqsa, ularga kollektor-zovur suvlarining tashlanishi suvning sho'riligini oshirdi, suv sathining nihoyatda past bo'lishiga, ba'zan esa yozning ayrim kunlari oqimining bo'lmasligiga sabab bo'ldi. Bu hol to'qay o'simliklarining me'yorida o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Amudaryo, Sirdaryo, Chu, Sarisuv, Ili daryolari del'talarida suvning kamayib ketishi katta maydonlardagi qamishzorlarni qurishiga olib keldi. Daraxtli to'qayzorlarning katta qismi butunlay quridi. Ushbu o'ta noqulay ekologik vaziyat hozirda ham davom etmoqda.

Daraxtli to'qayzorlarda, odatda turang'il (turli bargli, Sharqiy Eron), tor bargli va sharqiy turdagi tol, tollarning Vil-gelmis, janubiy, jung'or turlari ularga yo'ldosh sifatida yulg'un (jing'il), chang'il uchraydi. Daraxtlar va butalar kuzda lyanalar bilan o'ralib turadi. Mamrok to'qayda ochiq joylar qamish va dag'al kendir, ba'zan

sof assosiasiya vujudga keltiradi. Sho`rlangan tuproqlarda ko`proq galofntlar va kserofntlar tarqaladi.

Suv resurslaridan rejasiz foydalanish, tekisliklarda suv omborlarining qurilishi natijasida cho`llashish jarayoni kuzatilmoqda. Amudaryo, Sirdaryoning o`rta va yuqori oqimlarida, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Murg`ob, Tajan, Chu, Talas, Ili daryolari bo`ylarida keyingi 50-80-yillarda to`qayzorlarning suvsizlikdan qurishi va qirqilishi yanada kuchaydi. Hozirda daryolar bo`ylarida daraxtli to`qaylarni uchratish qiyin yoki onda-sonda saqlanib qolgan yosh to`qaylarni kuzatish mumkin.

To`qaylarda yaylov mahsuldorligi ancha yuqori, molni yilning barcha fasllarida boqish uchun qulay. Qamishli to`qayda pichan mahsuldorligi gektariga o`rtacha 120-150 s, yaylov mahsuldorligi esa 10—50 q ni tashkil qiladn. Lekin hozirda yaylovlarning degradasiyaga berilishi tufayli ushbu raqamlar ancha qisqargan.

Tog`oldi va tog` o`simliklari. Tog`larda o`simlik olami tekislikka nisbatan ancha boy va xilma-xildir. Bu hol o`simlik o`sishi uchun ekologik sharoitlarning birmuncha qulayligi bilan tushuntiriladi. Tog` etaklaridan yonbag`ir bo`ylab havo haroratining pasaynshi bilan birga yog`in miqdorining ortib borishi, shuningdek tuproqlarda chirindi miqdorining balandlikka ko`tarilgan sari ko`payishi, qalinligining orta borishi va boshqa omillar o`simliklarning o`sishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Mazkur o`zgarishlar g`arbiy Tyanshanda 2800-3000 m, Pomirda 3000—3500 m va undan balandda, Shimoliy Tyanshan va Junroriya Olatovida 2500—2800 m balandlikkacha sodir bo`ladi. Ushbu balandlikdan yuqori ko`tarilgan sari havo haroratining pasayishi tezlashadi, yogin miqdori esa keskin, kamayib boradi. Tog`oldi hududlari chalacho`l mintaqasi bilan band, lekin cho`l zonasining ta'siri sezilarli darajada bilinib turadi, bu hol cho`lda o`sadigan o`simlik vakillarinchng mazkur mintaqada keng tarqalganligi bilan bogliq. Chunonchi, sho`rlangan tuproqlarda galofitlar va kserofntlarning mavjudligi kuzatiladi. Shuvoq va sho`ra o`simliklarni tog` yonbag`irlarining yuqori qismlarida uchrashi, ular tarqalgan hududlarda haqiqatan ham cho`l sharoitiga o`xshash tabiiy sharoitning mavjudligi (ya'ni yog`ingarchikning chegaralanganligi, tuproqning sho`rligi va

boshqa.) bilan bog'liqdir. Tog' yonbag'irlarida mezofit o'simliklar bilan birga kserofitlarning ham mavjudligi qayd etiladi, ba'zan mezokserofit guruhiga kiruvchi o'simliklarni ham uchratish mumkin, bu hol tog' yonbag'irlarining quyoshga tomon qanchalik ro'bariy bo'lishi, yog'in miqdorining me'yordaligiga bog'liq.

Tog' yonbarirlarining eng yuqori, ya'ni suvayirg'ich qismlarida ekologik sharoit ancha murakkab, havo xarorati pastligi, yog'in-sochinning taqchilligi, muzloq yerlarning mavjudligi, bulutli kunlarning ko'p bo'lishi mazkur sharoitlar uchun mos keluvchi o'simliklarni tarqalishiga sababchidir. Bularga ksoriofit yoki nival mintaqasi o'simliklari xos, ulardan yuqorida adabiy muzliklar va alp tipiga mansub bo'lgan relyef shakillari mavjuddir.

Tog'oldi va tog' yonbag'irlari o'simliklarining balandlik bo'yicha ekologik sharoitlarning o'zgarib borishi tufayli ularning joylashishida ma'lum bir qonuniyat mavjudligi XIX asr oxirlarida asoslangan.

Subtropik dasht. E. P. Korovin (1968) ta'biri bilan aytganda, subtropik dashtga efemerlar va efemeroidlardan iborat o'simliklar guruhi kiritiladi. Ushbu o'simlik guruhlarini o'tloq yoki cho'l o'simlik mintaqasiga kiritib bo'lmaydi. Ular O'rta va Old Osiyoda o'ziga xos va alohida tur sifatida ajratilishi kerak, deb ta'kidlagan edi E. P. Korovin. Endilikda mazkrur o'simliklar guruhi egallagan arealda bir necha boshqa guruhlar ajratilmoqda.

O'lkada subtropik dashtlarning past o'tli va yirik o'tli ikki toifasi uchraydi. Past o'tli dashtlar Tyanshan va Pomir-Oloy tog' etaklari va tog'oldilariga xos, Markaziy va Shimoliy Tyanshan tizmalari tog' etaklarida uchramaydi. Efemeroidlarning asosini qo'ng'irbosh va rang tashkil qiladi. Guruhning boshqa o'simliklari bir yillik turlarga mansub bo'lib, astragallar-namatak, sariq po'ng'ichqa, lolaqizg'aldoq, ayiqtovon, boychechak, lola, eremurs, kovrak va boshqalar keng tarqalgan. Qo'ng'irbosh, rang o'simliklar guruhi och bo'z tuproqlarga xos.

Ko'p yillik o'tlar efemeroidlar tarqalgan areallarda unchalik ko'p emas. G'arbiy Tyanshanning tog'oldi tekisliklarida va past tog'larida bir yilliklar orasida oqkuray, qo'ziquloq va boshqalar tarqalgan. Yuqori yarusda siyrak holda darmana, oq shuvoq, kamroq uchrapdi. Bir yillik va ko'p yillik o'tlar aralash holda ko'proq

tipik boʻz tuproqlarda kuzatiladi. Ammo Janubiy Turkmaniston (Badhiz)da qoʻngʻirbosh, rang guruhi tarqalgan xududda asosiy tuproq qumlikdan iborat, yuqori yarusda ferula, echkison doremasi oʻsadi.

Efemer va efemeroidlardan iborat boʻlgan bahorgi yaylovlar mahsuldorligi ancha yuqori, gektaridan 3—6 q dan pichan tayyorlash mumkin.

Yirik oʻtli subtropik dasht guruhida koʻp yillik efemeroid turidagi formasiyalarga yirik boshqoli oʻsimliklar (tukli bugʻdoyiq, togʻ arpa), yirik turli oʻtli yarim savannalar (oqshashir, ferulaning boshqa turlari), qora andiz, tulkiqyruq (shashir) mansub. Yirik boshqoli, asosan tukli bugʻdoyiq va togʻ arpa hamda shashirzorlar Tyanshanning gʻarbiy va janubiy qismlarida va Kopetdogʻda toʻq va toʻq-kulrang boʻz tuproqlarda tarqalgan. Yirik turli oʻtli dasht (asosan, ferula, qora andiz hamda togʻ arpa) togʻ yonbagʻirlarida katta maydonlari egallaydi. Tojikistonning janubi-gʻarbida savagʻich mavjud. Turkistonning janubiy togʻ yonbagʻirlarida 700 m dan 2000 m gacha balandlikda tarqalgan, ular ostida togʻ jigar rang tuproqlar rivojlangan. Gʻarbiy Tyanshanda togʻ arpa oʻrtacha balandlikdagi mintaqaga toʻgʻri keladi. Yirik oʻtli dashtlar bahor-yozgi yaylov sifatida foydalaniladi. Bugʻdoyiqzorlar yaxshi pichanzorlar hisoblanadi. Jami mahsuldorlik gektariga 63 q ga boradi.

Dashtlar. Oʻrta Osiyoning togʻli qismida dashtlar oʻtli mikrotermli koʻp yillik kserofitlardan iborat. Janubiy tizmalarda dashtlar baland togʻ (subalp va alp) mintaqalarida, shimolda oʻrtacha balandlikdagi past togʻlar va hatto togʻ etaklarigacha tushadi. Dasht mintaqasida betagali dasht togʻ oldidan alp mintaqasigacha keng tarqalgan, shunchalik keng va xilma-xil ekologik sharoitda rivojlangan mazkur oʻsimlik bir necha turda guruhlar tashkil qiladi: 1) baland togʻ (ksorofil) guruhi togʻ oʻtloq-dasht, 2) togʻ guruhi past va oʻrtacha balandlikdagi togʻ yonbagʻirlarida och va toʻq kashtan tuproqlarda tarqalgan.

Baland togʻ guruhi oʻsimliklari past boʻyli edelveys, sovuq primula, togʻ flomisi va boshqalardan tashkil topgan. Togʻ guruhi Shimoliy va Ichki Tyanshanga xos. Ushbu guruh uchun chalov (qirgʻiz va kavkaz chalovlari) xarakterlidir. Betagali dashtlarning yaylov mahsuldorligi gektariga 5—6 q ni tashkil qiladi. Chalov va

o'tloq dashtlarda butalardan na'matak, tobulg'i, irg'ay, uchqat uchrashi xarakterli. Markaziy Tyanshanning tog'oldi va o'rtacha balandlikdagi yonbag'irlarida qarag'ay keng tarqalgan. Markaziy Tyanshan va Pomirning baland tog'larida iqlimning keskin kontinentalligi sababli kserofil dashtlar mavjud, Ularda mayda chalov, to'nqizsirt va boshqalar o'sadi. Baland tog'larning past bo'yli chalov, qo'ng'irbosh va oq momiqdan iborat yaylovlari amalda ko'p foydalaniladi, lekin mahsuldorligi pastroq. Tikanli o'tlar, Janubiy va g'arbiy Tyanshan va Badaxshonning janubiy yonbag'irlaridagi shag'alli tuproqlarda karrak guruhidagi tikanli o'tlar keng tarqalgan. Tyanshanning janubiy qismlari va Badaxshonda tikanli o'tlar subalp mintaqasiga xos (2500—3000 m), g'arbiy Hisor tizmalarida karrak tarqalgan. Quyi yarusda kseromezofitli, asosan Griffit peschankasi, tekisgulli qo'ng'irbosh, qoraboshdan iborat. Ushbu qenozlar bilan birga takasaqiz va yaproq; karrakzor almashib keladi, shuningdek ularga qo'shilib mezofil boshqali va turli o'tli oqso'xta, regieriya, eufo ham uchraydi. Hisor tizmasida ba'zi yunbag'irlar karrakdan iborat sof guruh bilan band. Tyanshanning janubida, Hisor, Bonvalo, qizg'ish-qo'ng'ir, tikanli o'tlar orasida Franshe karragi katta o'rin tutadi. G'arbiy Tyanshanning subalp mintaqasida tikanli o'tlarning edifikatori bo'lib, karraklarning Bonvalo va sara turi hisoblanadi. Birinchi formasiya 2700—3200 m balandlikda unchalik qiya bo'lmagan yonbag'irlar va tog' bellarida, qalinroq tuproqlarda boshqali dasht o'tlari, betaga, turli tomonga qarab o'suvchi qo'ng'irbosh va Turkiston arpasi bilan birga o'sadi. Dag'al tuproqlarda tragakantli karrak, astragal (kiyik-panja), qiziltikonlab gulli yostiqsimon o'simliklar ham tarqalgan. Ikkinchi formasiya mavjud bo'lgan hududlarda sara karrakning ko'p yillik yirik turlari 1900—2500 m balandlikda efemeroidlarga qo'shilib o'sadi (tulkyquyruq-shasho't, qo'y ferulasi va boshqa.). Tikonli o'tlardan tashkil topgan yaylovlarning mahsuldorligi unchalik yuqori emas, ba'zan o'tloqli karrakzorlar biroz yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Tragakantzorlar (kserofitli yostiqsimon o'simliklar). Tragakantzorlar yoki kserofit yostiqsimonlar deganda siyrak kserofitli yer bag'irlab o'suvchi yostiqsimon tikanli butalar va yarim butalar nazarda tutiladi. Ular ko'proq Kopetdog, Tyanshanning

janubiy va g'arbiy qismlarida, kamroq ichki va Markaziy Tyanshanda keng tarqalgan. Kopetdog'da ushbu o'simliklar janubiy yonbag'irlardagi toshloq tuproqlarda sidirg'a guruh hosil qiladi. Qenozning asosin «qurupchilari» bo'lib qattiq tikanli yostiqsimon tog'chitir, shoxsimon esparqet; qiziltikan va tikangulli o'simlik orasiga xos bo'lgan o'simliklar, shuningdek tragakantli astragallar hioblaiadi. Kopetdog'dagi tragakantzorlar odatda ikkilamchi hisoblanadi, ular archalarning qirqilishi yoki mol boqish oqibati sifatida vujudga kelgan.

Tyanshanning janubiy qismida tragakant o'simliklar o'rtacha va baland tog'larda keng tarqalgan. Ularning asosini tatar qiziltikani, tikan bargli o'simliklar, asparqet, mingbosh, tragakantli estragallar tashkil qiladi. Turkiston va Hisorning g'arbiy tarmoqlarida tragakantlarga qo'shilgan holda taqasaqiz o'sadi.

Kserofitli bargi to'kiluvchan butalar. Tipik kserofitli butazorlar bodom (tikanli va buxoro turi), tog' qarag'an, qoratikon, anor va anjir o'simliklaridan iborat. Tog' qarag'an ko'proq Markaziy Tyanshanga, qolganlari Tyanshanning g'arbiy va janubiy qismlariga va Kopetdog'ga xarakterli. Mazkur hududlarda aralash butazorlar mavjud, ko'proq toshloq tog' jigar rang va to'q bo'z tuproqlarda tarqalgan. Butazorlar ko'p hollarda ikkilamchi bo'lib, o'rmonlarni qirqish va o't tushishi oqibatida tarkib topgan.

Kserofitli bargi to'kiladigan siyrak o'rmonzorlar. Ushbu o'simlik turiga pista va buxoro bodomi xos. Ular juda siyrak, past bo'yli yorur o'rmonzorlar tashkil qiladi. Quyi yarusda odatda subtropik dasht o'simliklari rivojlanadi. Bodomzorlar Tojikistonning janubidagi toshloq tog' yonbag'irlarida tarqalgan, ularga qo'shilib butalardan na'matak, po'rsildoq, o'tli yarusda efemerli boshqodoshlar (qiltiq) va turli o'tlar (shashir) o'sadi. Bodom bilan birta sumax, unabi, olcha va boshqalar uchraydi. Pista kattaroq maydonlarda Bobotog'da, Badxiz (Ko'shka atrofida), kamroq g'arbiy va Janubiy Tyanshan, Kopetdorda uchraydi. Pista va bodomzorlarning yaylovlari bahor va erta yozda foydalaniladi.

Mezofitli bargi to'kiladigan butalar. Ushbu o'simlik guruhiga na'matak, qo'ng'ir na'matak, tobulg'i, uchqat, irg'ay, qayrag'och bargli bodom, qoraqand va boshqalar xos. Ular shimoliy yonbag'irlarda, o'rtacha balandlikdagi tog'larning

qora tuproqqa o`xshash tuproqlarida (Shimoliy Tyanshan) va tog` jigar rang tuproqlar (Janubiy Tyanshan, Badaxshon)da keng tarqalgan. Tyanshanning shimoliy qismida na'matakzorlar mavjud.

Janubiy Tojikistonda o`rtacha balandlikdagi tog`larda qora na'matakzorlar bilan qoramart aralash o`sadi. Ushbu na'matakzorlarda qayrag`och, bargli bodom, xushbo`y va o`tkirroq iring`ay mavjud. Ularga ba'zan Regel zarangi, do`lana qo`shiladi. Quyi yarusda efemerlar hukmron; shashir, oqqair yoki o`tloq-dasht turdagi turli o`tlar, oqso`xta, haqiqiy chaqamiq, qizilmiya va boshqalar. Mezofil butazorlar yanlov sifatida foydalaniladi.

Keng va mayda bargli o`rmonlar: Bargli o`rmonlar o`lkada ayrim aryallar bo`yicha joylashgan. Urmon hosil qiluvchi keng bargli daraxtlarga yong`oq, olma (qirg`iz va sivers turlari) va zarang (Semyonov va Turkiston turlari) mansub. Yong`oqzorlar olma va zarang bilan birga Tyanshanning g`arbiy qismida, Hisor, Kopetdog`da ma'lum. Yongoqzorlarning katta maydonlari Chotqol, Farg`ona, Piskom va boshqa tizmalarda uchraydi. Yong`oqzorlar odatda o`rtacha 1000 m dan 2200—2300 m balandlik orasidagi mintaqada ko`proq o`sadi. Mazkur mintaqada yog`in miqdori 1000 mm ga etadi, ko`proq shimoliy yonbag`irlarni xush ko`radi. Sof yong`oqzorlar Farg`ona tizmasida katta maydonlarni egallaydi, qolgan hududlarda areallar unchalik katta emas. Zarang va olma bilan aralash holda o`sgan yong`oqzorlar ko`proq janubiy yonbag`irlarga xos. Yong`oq, olma va tog` olchasining mevachilikdagi ahamiyati nihoyatda katta.

Mayda bargli o`rmon hosil qiluvchi daraxtzorlar asosini tog` terak, qayin (tyanshan, turkiston, shug`non tol bargi, turlari), quyuq bargli va Pomir turidagi teraklar tashkil qiladi. Tog` terakzorlari asosan Shnmoliy Tyanshanga xos, ko`proq shimoliy yonbag`irlarda tarqalgan bo`lib, 1400-2000 m balandlik orasida o`sadi. Ularning tarkibida Sivers olmasi, do`lana va boshqa butalar mavjud. Qayin va tarekzorlar tog` vodiylari va daralarni egallagan. Keng bargli va mayda bargli o`rmonzorlar ostida mahsuldor yaylov tarkib topadi.

Ignabargli qorong`i o`rmonlar (tayga). Igna bargli o`rmonlar faqat Tyanshan tizimga xos. Tyanshan sariq qarag`ayi, oq qarag`ay, sibir oq qarag`ayi asosiy

o`rmon tashkil qiluvchi daraxt turlari hisoblanadi. Sibir oq qarag`ayi Junroriya Olatovida, oq qarag`ay Tyanshanning g`arbiy qismida tarqalgan. O`rtacha balandlikdagi tog`larda sariq qarag`ay 1400—2600 m li mintaqada park ko`rinishida tarqalgan. Ular orasida yo`sinli sariq qarag`ay, o`tli yo`sinli, butali baland o`tli (o`tloqli) va aralash turlari uchraydi. Moxli sariq qarag`ayzorlar Shimoliy Tyanshanda tik shimoliy va shimoli-sharqiy ekspozitsiyadagi yonbag`irlarni egallaydi. Aralash sariq qarag`ayzorlarga terak, tog`terak, olma, qizilchetan, Tyanshanning g`arbiy qismida yoqroq qo`shilib o`sadi. Ular ko`proq daryo vodiylari va daralarida keng tarqalgan.

Subalp mintaqasida sariq qarag`ayzorlar 2500 m dan balaida uchraydi. O`rmonzor siyrak, ko`proq lishaynikli, archali, tog` qarag`ayli va o`tloq mayda bargli sariq qarag`ayzorlar mavjud. Semyonov oq qarag`ayi sof o`rmon tashkil qilmaydi. Tyanshanning g`arbida yong`oq, olma, sariq qarag`ay bilan birga o`sadi. Yoz kunlari mahsuldorli yaylov sifatida foydalaniladi, o`rmonlarning suv va tuproqni eroziyadan saqlashdagi ahamiyati nihoyatda katta.

Archali siyrak o`rmonlar va o`rmonlar. Archali siyrak o`rmonzorlar O`rta Osiyo o`lkasi tog`lari uchun o`ziga xos o`simlik, ular Kopetdog`, Tyanshan va Badaxshonda keng tarqalgan. Archa tog` yonbag`irlarida asosan 1200 (ba`zan 1000 m) -1400 dan 3200 m gacha bo`lgan mintaqada tarqalgan. Archaning quyidagi turlari mavjud: turkiston (o`rikarcha yoki baliqarcha), yarimshar (saurarcha), Zarafshon (qizilarcha, qoraarcha), Kopetdog`da turkman archa. Archa turlari hududlarning strukturali ekologik sharoitiga ko`ra tarqalgan. Dasht archasi qiyaroq yonbag`irdarni egallaydi. Quyi yarusda dasht boshoqli o`simliklar, ko`proq betaga, chillaoyoq, otqo`noq, qo`ng`irbosh va kseromorfli turli o`tlar (qizilpoyachadalachoy, sigirquyruq, shuvoq turlari) uchraydi. Dasht archazorlari subalp mintaqasiga yaqinroq yonbag`irlarni xush ko`radi. Subtropik dasht archazorlar tog`larning quyi qismiga xos. Quyi yarusda bug`doyiq, tulki quyruq (shashir) ko`proq uchraydi. Baland yassi tog`lar archazorlari o`lkada eng ko`p tarqalgan. Quyi yarusda butacha va yarim butali kserofit (frigana) o`simliklar (yostiqsimon) ko`pchilikni tashkil qiladi. O`tloqli archazorlar sernam hududlarda-daralar va

shimoliy yonbag'irlarda o'sadi. Quyi yarusda ro'vak, bug'doyiq, suvbug'doniq, o'tloqli qo'ng'irbosh va boshqalar tarqalgan.

Yonbag'irlab o'suvchi archazorlar Tyanshan va Pomir-Oloyning subalp mintaqasida mavjud. Ushbu mintaqada Turkiston archasidan tashqari Shimoliy Tyanshanda yer bag'irlab o'suvchi sibir archasi (qarag'ay) ham o'sadi. Archazorlarning tuproqni eroziyadan saqlashda va zaminda nam to'plashda ahamiyati benihoya katta, yaylovlarning mahsuldorligi yuqori, yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

Tog' o'tloqlari. O'tloqzorlarga ko'p yillik o'tli mezofitlar xos. Ekologik jihatdan tog' o'tloqlarini ikki toifa: 1) subalp va alp mintaqalari, 2) o'rtacha balandlikdagi tog' yonbag'irlari o'tloqlariga ajratish mumkin. Baland tog' o'tloqlari asosan Tyanshanning shimoliy tizmalarida yaxshi ifodalangan, qolgan joylarda kserofit turlar dasht, yassi tog' kserofitlari, baland tog' yastiqsimonlari bilan almashadi, Alp o'tloqlari kichikroq hududlarda qadimgi muzlik karlari o'rnida, eriyotgan qorlik yoki buloqlar atrofida tashkil topgan, boshqacha aytganda aslida ular kichikroq o'tloqzorlardan iborat. Tuprog'i tog' o'tloq yarim torfli va torfli turdan, o't qoplami esa mayda turli o'tlardan iborat (tirik tug'uvchi va chiroyli goreg', alp sanchiqo'ti, oq gulli shulqiya, tog' gunafsha, kamnelomki, qoqio'tning turlari va boshqalar).

Tyanshan tog'larida subalp o'tloqlari tyanshan sariq qarag'ayi mintaqasidan so'ng boshlanadi va ko'proq shimoliy yonbag'irlarni ma'qul ko'radi. Ular tipik tog' o'tloq va qoratuproqqa o'xshash tuproqlarda rivojlanadi. O'tloq tarkibida Osiyo ovseqi, jungor mushukquyrug'i, qizil sulii, treshchetinniki (boshqali, oltoy va sibir turlari), turli o'tlardan sibir va Krilov g'oz yaprogi, anjabor, ayiqtovon, turli piyozlar va boshqa o'simliklar o'sadi. Subalp mintaqasi yaylovlari sermahsuldor, gektariga 8—18 q ni tashkil qiladi.

O'rtacha balandlikdagi tog'larning o'tloqlari qulay iqlimiy xususiyatlarga ega. Tyanshan tog'laridagi o'tloqlarning asosini oq-so'xta, patli korotkonojka, ro'vak, suvbug'doyiq, gulpar tashkil qiladi. O'tloqlar tog'larning shimoliy yonbag'irlarida tog'-o'tloq qoratuproqqa o'xshash tuproqlarda tarqalgan. O'tloqlarda turli butalar:

na'matak, uchqat, irg'ay; daraxtlardan: do'lana, olma, yong'oq mavjud. Ko'p hollarda subalp va o'rtacha balandliklardagi o'tloqlar ikkilamchi bo'lib, avvalgi o'rmonlarni qirqish natijasida tashkil topgan.

Baland tog'larda ko'p yillik o'tli kriokserofitlarning mavjudligi iqlimiy sharoitlarning keskin kontinentalligi va yog'in-sochinning taqchilligi bilan bog'liq. Ushbu mintaqa asosan alp zonasiga to'g'ri keladi, ko'proq kobraziya (to'nqizsirt) formasiyasi bilan band. Bioekologik jihatdan bir tomondan dasht, boshqa bir jihatdan o'tloqlarga yaqin turadi. Dasht o'simliklariga yaqinligi kobrsziyaning kseromorfligidan darak beradi. Shuningdek, unga tipik dashit o'simliklari (betaga, Regel chalovi va boshqalar) ham qo'shilib o'sadi. O'tloqlar bilan o'xshashligi tuproqda chim hosil bo'lishi va o'tloq mezofil turlarning mavjudligi bilan bog'liq. Shularni hisobga olib E. P. Korovin ushbu o'simlik formasiyasini mustaqil o'simlik turi sifatida ajratish maqsadga muvofiq deb ta'kidlayd, Kobraziya o'tloqlari yuqori darajada mahsuldor yaylov (gektariga 25 q gacha) hisoblaydi.

Baland tog' yostiqsimon o'simliklar. Pomir va Markaziy Tyanshanning eng baland qismlari iqlimning nihoyatda keskin kontinentalligi tufayli va yog'in miqdorining kamligi yer bag'irlab o'suvchi o'simliklarning tarqalishiga sharoit yaratadi. Akantolimo (ignabargli yarim buta) va boshqa zich tikanli o'simliklar mintaqa iqlimiga mos kelganligi sababli asosiy edifikator hisoblanadi. Pomirniig balaid tog'larida 3800 m dan 4500 m balaidlikda shimoliy yonbag'irlarning shag'al aralash mayda tuproqlarida rivojlanadi. Unga ko'shicha tikanli tersken, shuningdek, ikki gulli ilonbosh, o'rmalovchi qo'ng'irbosh, eshakgulilar aralashadi. Yer bag'irlab o'suvchi yostig'simonlarga Popsen va Tyanshan ostrolodochniklarni ko'rsatib o'tish joiz. Yama Iomir va Pomir-Oloy lapchatkash, chuqurlashgan ostrolod formasiyasi Pomirda 4300—5000 m balandlikda uchraydi. Yaylov jihatidan ularning ahamiyati yo'q darajada.

Baland to'larning siyrak o'simliklari. Baland tog'larning suvayirg'ich qismlari, tog' muzliklari va qorliklari, yalang'och qoyalar yaqinida so'lim sharoitlar nihoyatda keskinligi bilan xarakterli. Tuproq ham yaxshi rivojlanmagan, alp tipidagi qoyali relyeflar, sertoshloq doimiy muzloq yerlar hukumron. Onda-sonda

qulay joylarda kobreziya, kserofit dasht va kserofit o'tloqlarining ayrim vakmlari uchraydi; Semyonov jimolosti (dukyog'och), Zalesov sabslnigi, butadi quril choyi, qoyalarning yoriqlarida o'sadi. Pomirda qoya va sig'alonlarda kserofitlarning ayrim guruhlarining vakillari mavjud: ildizli pijma, turli bargli ilonbosh, Murkroft lapchatkasi, qora tukli ostrolodochnik va boshqalar. Ularning yaylov jihatidan ahamiyati deyarli yo`q.

Vohalar. Arid iqlim sharoitida inson hayot kechirish maqsadida suv manbalaridan boshlab kanal yoki ariq qazib, qulay joylarni suhoradi, daraxt, ekin ekadi, uy-joy quradi. Cho'l o'rnida qishloq, shahar, katta ekin maydonlari tarkib topadi. Sug'oriladigan dehqonchilik ko'hna tarixga ega. Turkmanistonda Murg'ob, Atrek, Tajan daryolari hududlaridagi sug'orma dehqoichilik 3-5 minr yillk, Xorazm, Zarafshon vohalari 2-2,5 ming va undan ko'p tarixni boshdai kechnrib kelmoqda. Quruq iqlim sharoitida suv beqiyos ahamiyatli, qimmatbaho boylik, uni hech bir narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Axir xalqimiz suv bor joyda hayot bor, suv tugagan joyda hayot ham tugaydi, deb bejiz aytmagan.

Vohalar atrofidagi qo'riq yerlar tabiiy sharoitning deyarli barcha ko'rsatkichlari bo'yicha keskin farq qiladi. Ming yillar davomida sug'orish, irrigasiya, qal'a va boshqa inshootlarni natijasida zamin o'sti ikkilamchi etqiziqlar bilan qoplanib boradi. Bunga agroirrigasion yotqiziq, relyefning pastbalandlikni tekislash maqsadida turli tuproqlarga o'sha davr madaniyatini aks ettiruvchi buyumlar va ularnng qoldiqlari, metallardan tayyorlangan parchalari (sopol idish, toshdan ishlangan buyum, idish, qurol va boshqalar) aralashib ketadi. Samarqand vohasidagi sug'oriladigan yerlarning ayrim hududlarida agroirrigasion yotqiziqlarning qalinligi 2,5 m dan oshiq. Buxoro markazidagi Kalyon o'rta asr inshooti yaqinida Zarafshon daryosining xaqiqiy birlamchi yotqiziqarlari arxeologlarning fikricha yer satxidan 20 m pastda joylashgan. Binobarin, odam yangi antropogen yotqiziqlarni vujudga keltira oladi. Buning natijasida haqiqiy geologik yotqiziqlar ustida ma'lum qalinlikda yangi qatlam tarkib topib boradi.

Vohalarda birlamchi relyef nihoyatda tez o'zgaradi. Tekislash, pastqamliklarni tuproq bilan to'ldirish tufayli relyef shakli yangi xususiyatga ega bo'la boradi.

Lekin sug'orishni noto'g'ri tashkil qilish, eroziya hodisasiga qarshi choralarini qo'llamaslik oqibatida esa yalang qiya tekislik jarlar hamda turli eroziya shakllari bilan murakkablashadi, lyoss jinslarida cho'kish, suffoziya (o'pqqon) jarayonlari rivojlanadi.

Vohalarning yoshi va o'simliklar bilan qanchalik zich qoplanganligiga qarab iqlimiy sharoitlari atrofdagi cho'ldan ancha farq qiladi. Avvalo bu farq yozda havoning nisbiy namligining yuqoriligi va havo haroratining 2-5° ga kamligi, qishda havo haroratining biroz bo'lsada yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bug'lanishning yuqori darajada bo'lishligi namlikni oshirsa, boshqa bir tomondan haroratni pasaytiradi.

Vohalarda grunt suvlari sathini pasaytirish maqsadida zich kollektor-zoiur tarmoqlari bunyod etiladi, ba'zan turli kattalikda suv omborlari bir butun suv inshootlari majmuasini tashkil qiladi. Irrigasiya va meliorasiya tarmoqlari vohalarning ajralmas elementi sifatida ularning landshaft-ekologik xususiyatlarini o'zgarishiga ta'sir etadi.

Vohalarda tub asosi bilan madaniy o'simliklar hukmron, katta maydonlarni paxta, sholi, g'alla, emxashak ekinlari, bog'lar, poliz ekinlari, uzumzorlar egallagan. Vohada avvalgi cho'l o'simliklari vakillari deyarli uchramaydi, faqat ariq chekkalarida yoki biror sabab bilan o'zlashtirilmagan yoxud tashlandiq maydonchada o't-o'lan uchrab turadi. Lekin begona o'tlar, buta. va butachalar ko'plab uchraydi, aslida ushbu o'simliklar yerlar o'zlashtirilmadan avval shu joyda usmagan, yolish keyin mayda bo'lgan gidrofit, mezofit va kserofit guruhiga kiruvchilar hisoblanadi.

Tuproqni shamol yoki suv eroziyasidan saqlash maqsadida vohalarda ma'lum bir reja asosida yo'l, ariq, kanal chekkalarida ixota daraxtzorlari tashkil qilingan, ba'zida ular mevali va mevasiz dekorativ o'simliklardan tashkil topadi. Vohalarda mahalliy daraxt o'simliklaridan tashqari chetdan keltirib, introduksiya qilingan akasiya, tikandaraxt (gledichiya), sassiqdaraxt (aylant), madaniy zarang, qayrag'och (bujun), kiparis (sarv), magioliya, loladaraxt, ersovun, tuxumak (yapon soflari), katalpa va boshqalar ko'plab uchraydi. Bohlar va dam olish xiyobonlarida

hozirda 1000 dan ortiq mahalliy va chetdan keltirilgan flora turlarini uchratish mumkin.

Yerlarni o`zlashtirish, mavjud o`simlik qoplamini yo`q qilinishi natijasida mahalliy hayvonlar vohalar vujudga kelayotgan bosqichdayoq qo`shni hududlarga ko`chib o`tadi, bir qismi, ayniqsa sudralib yuruvchilar, ko`chish jarayoida va inson ta'sirida halok bo`ladi yoki qolib ketadi, bazilari yangi ekologik sharoitga moslashib ham qoladi. Vohalarga atrofdan madaniylashgan yangi hayvon turlari ko`chib kelishi (masalan, kaptar, musicha, qaldirg`och, qarqunoq, sichqon, kalamush va boshqalar) kuzatiladi. Xullas, bir necha yil mobaynida shu joyga xos bo`lgan yangi voqa hayvonot dunyosi shakllanadi.

Vohalar vujudga kelgan hududning landshaft xususiyatlariga ko`ra ularni yangi turdagi agrogeosistema deb qarash ham mumkin. Avvalo vohalar ma'lum relyef turi shaklida joylashadi (daryo terrasalari, daltalari, yoyilmalar, proyuvial shleyflar va h. k.), binobarin voqa geosistemasi aniq tabiiy chegaraga ega. Shuningdek, relyef turida zaminning yotqiziqlari ma'lum bir genetik xususiyatiga ega (allyuviy, proyuviy, proyuvial-allyuvial, ko`l va boshqalar) tuproq turlari deyarli bir tipga ega bo`ladi. Shu jihatdan vohalarda madaniy yoki antropogen landshaft agrogeosistema vujudga kelgan.

Vohalar cho`llar bilan o`ralganligi tufayli ular o`rtasida muntazam o`zaro ta'sir mavjud. Cho`ldan vohalarga shamol ta'sirida qum, qumoq, qumloq, tuz, chang uchib keladi, ba'zan issiq va quruq garmsel, afg`on shamoli kirib keladi va ekinlarga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Kemiruvchilar, qushlar, chigirtka to`dasi ekinlarni talaydi. O`z navbatida voqa agrogeosistemasi ham atrofda cho`lga qarshi ta'sir ko`rsatadi: ortiqcha tashlandiq bular yastqamliklarga byziladi, kollektor-zovur suvlari qarilishi natijasida atrofda ko`llar, botqoqliklar, sho`rxoklar tarkib topadi, grunt suvlarining vohadan cho`lga tomon harakat qilishi tufayli yer sho`rlandadi, binobarin bu hol o`simlik turlarini o`zgartiradi. Voqa atrofida ko`plab mollarni tartibsiz boqilishi bilan uning atrofida qum barxanlari tarkib topadi. Demak, ushbu o`zaro ta'sir inson tomonidan maqsadga muvofiq holda boshqarilishi zarurdir.

Hayvonot dunyosi. O`rta Osiyo hayvonlari boyligi va hayvonlarning har xilligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. 1. U birinchidan, o`lka hududi tabiiy sharoitining turli-tumanligi qumli, taqirli tekisliklardan hamda adir va tog` landshaftlaridan tashkil topganligi, ikkinchidan, turli o`simlik qoplami, o`txo`r va yirtqich hayvonlarning geografik tarqalshiga sabab bo`lgan o`lka tabiiy sharoitidagi tafovutlar ayniqsa, ularning tekislik qismi bilan tog`li qismida yaqqol namoyon bo`ladi. Tekislik qismida chalacho`l va cho`llarga moslashgan hayvonlar ko`p uchraydi, Binobarin, tekislikdagi hayvonlarga quruq, davomli issiq yozga nisbatan sovuq qishga bardosh bera oladshgan alomatlar shakllangan. Tog`larda esa yuqoriga ko`tarilgan sari relyefning murakkablashib borishi, haroratning pasayishi, yog`in miqdorining ortishi, yozning qisqa qishning sovuq va davomiyliigi, o`simlik qoplaminig qalinlashishi o`z navbatida hayvonlarning o`sha sharoitga moslashgan turlarini xususan sutemizuvchi va yirtqich hayvon hamda qushlar turining ko`p, aksincha, sudralib yuruvchilarning kam bo`lishiga sabab bo`lgan.

O`lka faunasining turli-tumanligi uzoq geologik taraqqiyot tarixi davrida tarkib topganligi va boshqa hududlarning hayvonlari bilan aloqada bo`lganligiga bog`liq. Shu sababli bu yerda endemik hayvonlar bilan birga O`rta Osiyo, Hind-Himolay, Evropa-Sibir, Old Osiyo, hattoki Afrika kabi hududlarga xos bo`lgan turlari ham uchraydi.

Tekislik qismida ko`proq Afrika va Old Osiyoga xos hayvonlar turi yashasa, aksincha, tog`larida Hind-Himolay, O`rta Osiyo, Evropa, Sibirga mansub bo`lgan hayvon turlari ko`proq uchraydi: cho`l echkemari, bo`z echkamar, charxilon, chiyabo`ri, barxan mushugi, jayron, karakal Afrika va Old Osiyodan o`tgan; sirtlon, chiyabo`ri, plastinkasimon dumli kalamush, ko`zoynakli ilon Hindistondan o`tgan; katta qumsichqon, kiyik qushoyoq, qo`ng`ir ziq, oq sichqon, antilopa, qo`ng`ir ayiq, saygoq, kichik tulki, karsak Evropa-Sibirdan; jayron, qora ilvirs, tog` takasi, arxar, qizil uri Markaziy Osiyodan kirib kelgan. Shular bilan bir qatorda, o`lka hududida paydo bo`lgan va boshqa joylarda deyarli uchramaydigan Orol shipi va katta qurbaqaburun baliqlari, turkiston agamasi, turkiston gekkoni, qum

bo`g`ma iloni, xo`jasavdogar, Bobrinskiy qushoyog`i, inqichka barmoqli yumronqoziq, ko`k suqur, Tyanshan o`rmon sichqoni, qizil pishchuxa, Oloy kaltakesagi kabi endemik hayvonlar ham bor.

O`lka hududidagi hozirgi zamoii hayvonlari, yuqorida qayd qilganimizdek, ham zonal, ham balandlik mintaqalanish qonuniyatiga asoslangan holda joylashgan.

Tekislik qismida dasht, chalacho`l va cho`l zonalariga xos hayvonlar mavjud bo`lib, shimoldan janubga borgan sari ularning mezofid turlari kamayib, aksincha, quruq, issiq iqlimga moslashgan turlari ortib boradi. Shuningdek, shimoldan janubga borgan sari kemiruvchi va sudralib yuruvchi hayvon turlari ortib boradi.

Tekislikdagi hayvonlarning geografik tarqalishi ular yashab turgan tabiiy sharoitning zonallik qonuniyati bilan bog`liqligidadir. Shu sababli tekislikning shimolida qish nisbatan sovuq bo`lib, qor uzoq vaqt saqlanganligi tufayli ba`zi hayvonlar o`zini muhofaza qilish uchun oq tusga (oqquyruq, rusak quyon, latcha va boshqalar) kirsa, janubidagi hayvonlar qish yumshoq, iliq bo`lganligidan oq tusga kirmaydi. Buni ustiga, tekislikning shimolida qishda o`troq va ko`chmanchi qushlar deyarli qolmadi, janubida qish iliq kelganligi tufayli qush galalarini uchratish mumkin.

O`lka tekislik qismidagi hayvonlar, yashash sharoitining zonallikka rioya qilishi tufayli, shimoliy kismidagi ba`zi hayvon turlari (qo`shoyoq, reotklkyalilar) qishda janubdagilarga nisbatan uzoq uyquga ketadi.

Tekislikdagi hayvonlar olamining tarqalishi faqat zonallik qonuniyatiga emas, yana endemik omillarga ham bog`liqdir. Bunga qumli cho`llarda, yer yuzasidan 30—40 sm chuqurliklarda qum doimo nam bo`lgani sababli hayvonlar nisbatan ko`proq bo`lib, ular yozning issiq vaqtida va dushmandan bekinish uchun tezda qumni yorib ichiga kirib bekinishga moslashgan. Aksincha, taqirli cho`llarda yuqoridagi sharoitning yo`qligi tufayli fauna ancha kambag`al. Gilli cho`llarda grunt qattiq bo`lganligi tufayli yozning issig`idan va dushmandan saqlanish uchun hayvonlar kovaklar (inlar) qazib bekinib oladilar. Bitta qazilgan kemiruvchi inlariga turli hayvonlar, kaltakesaklar, qo`ngizlar, har-xil hasharotlar ham kirib oladi. To`qaylarda va daryo yoqalarida esa shu sharoitga moslashgan har xil hayvon,

qush va hasharotlar: chivinlar, kapalaklar, kalamushlar, qirrovdular, chiyabo`ri kabilar yashaydi.

Tekisliklarda hayvonlarning quyidagi tarqalish zonalarini mavjud: dasht, chalacho`l va cho`l. Quyida har bir zona hayvonlari haqida qisqacha to`xtab o`tamiz.

Dashtlar faunasi. O`rta Osiyo tekislik qismining shimolida joylashib, janubiy chegarasi Oqtyuba, Qaraganda shaxarlar kengligidan o`tadi. Bu zona faunasi xilma-xil bo`lib, unda o`rmondashtga va chalacho`lga xos hayvonlar uchraydi. Elik, bo`rsiq, bo`ri, tulki, quyon, oqquyruq, baybaksuqur, katta yumronqoziq, kichik yumronqoziq, chipor yumronqoziq, katta qushoyoq, uch barmoqli qo`shoyoq, ko`rsichqon, dasht sassiqko`zani, dasht qora ilonlari, dasht kichik kaltakseagi dashtning asosiy hayvonlari hisoblanadi.

Dashtlarda yalang yerlar ko`p bo`lganligidan kemiruvchilarning aksariyati o`zini dushmandan muhofaza qilish uchun in qazib, ba'zi kemiruvchilar, chunonchi ko`rsichqonlar doimo yer tagida, ya'ni inida yashaydi.

Tuvaloq, bizqaldoq, kichik turna, dasht baliqchisi, to`rgay, bedana dashtlarga xos bo`lgan qushlardir. Dashtlarda kemiruvchilar ko`p yashaganligi tufayli ularni ov qiluvchi yirtqich qushlar-burgut, buktargi, chovli kabilar ham ko`p uchraydi. Qora to`rg`ay dasht uchun endemik hisoblanadi.

Dashtlardagi ko`llarda o`rdak, g`oz, baliqchi, baliqchi qush, cho`tan, qorabuzov, ko`lbuqa, qirg`ovul kabi suv qushlari ko`p. Qishda ko`pgina qushlar dasht zonasini tark etadi. Bunday qushlarga bizqaldoq, tuvaloq, bo`ktargi, kichik turnalar, to`rg`ay, bedana kiradi. Tuyoqli hayvonlar esa qishi nisbatan iliq va qor qoplami yupqa bo`lgan janub tomonga qarab ketadi. Qishda baybaksug`ur, yumronqoziq va qo`shoyoqlar inlariga kirib, uyquga ketadi. Kishilarnng ta'sirida qadim dashtda ko`plab yashagan yovvoyi ot, yovvoyi tuya, to`g`ay bugusi, yo`lbars butunlay yo`q qilindi.

Chalacho`llar zonasi. Qozog`iston past tog`larining janubi, To`rg`ay botiqining janubi va Mug`ojar tog`larini o`z ichiga olgan bu zona janubda cho`l zonasidan taxminan 48° sh.k.lar orqali ajralib turadi. Chalacho`llar o`tkinchi zona hisoblanganligi tufayli ham dashtga, ham cho`lga xos bo`lgan hayvonlar yashaydi.

Shu sababli bu zonada cho'llarga xos bo'lgan kemiruvchilardan o'simlik yoriqlarida yashovchi tukli qushoyoq, qumliklarda yashovchi kichikqushoyoq va qarga yer quyoni yashaydi. Shuningdek, chalacho'llarda qumsichqon, malla quyon, olaxurjun, shuvoqli yerlarda oqquyruq uchraydi. Chalacho'llarda keng tarqalgan hayvonlarga bo'ri, qarsoq tulki, oddiy tulki, bo'rsiq, oqsichqon, dasht sissiko'zani misol bo'ladi.

Chalacho'llar uchun sudraluvchilardan yumaloq boshli taqir kaltakesagi, kichik katak-katak va yo'lyo'l kaltakesaklar, agama, o'qilon, toshbaqalar xarakterli hayvonlar hisoblayadi.

Chala cho'llarda har xil qushlar, xususan qora to'rty, kichik to'rgay, sho'rtob yerlarda oq qanotli to'rg'ay; ko'llarda o'rdak, g'oz, bauqaldoq, qo'tan kabilar yashaydi.

Cho'llar zonasi qurg'oqchil bo'lib, yog'inga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish 10-15 marta ortiq bo'lganligi tufayli, to'qay va daryo vodiylaridan istisno o'simliklar siyrak o'sib, barglari ingichka. Buning ustiga ba'zi yerlari qumliklardan, sho'rxok va taqirlardan, yalang yerlardan iborat ekanligi tufayli hayvonlari yirtqichlardan va dushmanlardan bekinishi hamda jazirama yozning issiqidan saqlanishi uchun sharoit etarli emas. Bular o'z navbatida cho'l hayvonlarining shu sharoitga moslashishiga sababchi bo'lgan. Cho'l hayvonlari sharoitga quyidagicha moslashgan: ko'pchilik hayvonlarning rangi cho'lga xos bo'lib, sarg'ish-kul rang yoki qum rang-sarg'ish; o'simliklar siyrak bo'lganligi tufayli ba'zi hayvonlar, chunonchi kaltakesaklar, ilonlar yirtqichlar hamlasidan bekinish imkoniyati yo'qligi sababli ularda qochish uchun harakatchanlik xususiyati shakllangan; cho'lda suv kam bo'lganligidan jayron, qulon, oqquyruq kabi hayvonlar chopqir (soatiga 60—70 km tezlikda chopadi) bo'lib, uzoqlardan suv ichib kelish imkoniyatiga ega; ba'zi kemiruvchi hayvonlar, jumladan, yumronqoziqlar, qo'shoyoqlar, ko'rsichqonlar egan ozuqasidagi nam bilan qanoat hosil qilganligi tufayli oz suv ichadi yoki butunlay suv ichmay yashaydi; cho'lda yozda harorat ko'tarilib, jazirama issiq tufayli ko'pchilik hayvonlar kun qiziganda salqin uyasiga bekinib oladi yoki daraxtlarga chiqib (hatto ilon va kaltakesaklar

ham) shabadada jon saqlab, quyosh botgandan so`ng faol hayot kechiradi; qumlar ko`p bo`lganligi tufayli ularda yashaydigan hayvonlarni oyog`i kum ustida tez yurishga moslashgan; kaltakesaklar, ilonlar kabi hayvonlar va hasharotlar dushmanlaridan saqlanish uchun tezda qumga kirib bekinib olish xususiyatiga ega. Cho`llar zonasi tarqalgan hududlar qumli, gilli, cho`llardan Markaziy qismida, qumli cho`llarda hayvonlar gilli va taqirli cho`yalarga nisbatan ko`p yashaydi. Bunga asosiy sabab qumlarning ostki qismida doimo ma`lum darajada namlik bo`ladi hamda grunt yumshoq bo`lganligi tufayli, o`simlik ildizlari yaxshi rivojlanganligi oqibatida o`qdan hayvonlarning foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Buning ustiga qumli cho`llarda bahorda efemer va efemerond o`simliklarning barq urib o`sishi, so`ngra shuvoq, saksovul, qandim, qum ilog`i kabi o`simliklar o`z vegetasiyasini davom ettirish qumli cho`llar faunasining turli-tumanligiga sababchi bo`lgan.

Gilli cho`llar hayvonot dunyosi qumli cho`llarga o`xshash bo`sada, lekin ularmi gurixini kattikligi hamda o`simlik qoplaminig kamligi sababli hayvonlarning miqdori va turi nisbatan kam. Gilli cho`llarda aksariyat hayvonlar dushmanlardan va jazirama issiqdan saqlanishi uchun in qazib yashaydi. Gilli cho`lga xos bo`lgan kichik qushoyoq, kul rang kichik olaxurjun, yer quyon, ko`rsichqon, qizil qumli ko`rsichqoni, tuvaloq, olachipor kichik kaltakesak; cho`l agamasi kabilar yashaydi. Qumsichqon, ko`rsichqon, qushoyoqlar boshqa hayvon yoki eski qoldiq inlarga kirib ham yashaydi. Kemiruvchilar inlariga boshqa, har xil hasharotlar, ko`nqizlar o`rgimchaklar ham kirib yashayveradi.

Gilli cho`llar ayniqsa, tuyoqli hayvonlarning harakatlanishi uchun qulay bo`lganligi sababli jayron, sayg`oq, qulon kabilar yashaydi. Gilli cho`llarda umurtqasiz hayvonlarning qumli cho`llarga nisbatan kam bo`lishiga asosny sabab, grunt tarkibida namlikni etishmasligi, o`simlikning siyrakligi hamda ularning ildizlaridan (gruntning qattiqligi tufayli) foydalanishning qiyinligidir.

Gilli cho`llarning ba'zi joylari toshloqlardan hamda nisbatan katta toshlardan iborat bo`lib, undan ba'zi umurtqasiz hayvonlar va kaltakesaklar kunduzi issiqdan yashirinishi uchun foydalanadi.

Cho'l zonasining adirga yaqinlashgan qismlarida ko'lvor ilon, qopchiqli ilon (turkiston kobrasi) ham uchraydi.

Cho'l zonasidagi taqirlarda hayvonlar juda kam. Bunga asosiy sabab o'simliklarning kamligi, gruntning nisbatan qotib qolganligidir. Taqirlarda ko'rsichqon, qushoyoq, taqir kaltakesagi, har xil qo'nqizlar, chumolilar yashaydi. Taqirdagi yoriqlar kapalaklarning va turli o'rgimchaklarning, xususan qoraqurtlarning kunduzi yashirinadigan joyi hisoblanadi.

Tekislikdagi to'qayzorlarda hayvonlarning turi, miqdori va yashash sharoiti chalacho'l yoki cho'l hayvonlaridan farqlanadi. Chunki to'qayzorlar asosan daryo vodiylarida, xususan Amudaryo, Sirdaryo, Ili, Chu, Talas, Zarafshon kabi daryo vodiylarida joylashgan bo'lib, sersuv, nam, o'simlik qoplami qalin. Bunday sharoitga moslashgan hayvonlardan eng muximlari chiyabo'ri, yovvoyi cho'chqa, to'qay mushugi, bug'u-xongul, qoplon (bars), quyon, suv kalamushi, ondatra, plastinka tishli kalamush, sichqon, qirg'ovul, ko'ktargog moyqut, qarqunoq, chumchuq yashaydi. To'qayning suvlarida o'rdak, g'oz, loyxo'rak, baliqchi, qorabuzov (baklan) flamingo (qizil g'oz) ko'plab yashaydi. Shuningdek, to'qayzorlarda chigirtka, chayonlar, qurbaqalar ham mavjud.

O'lkaning suv havzalarida turli xil baliqlar mavjud, ularni eng muhimlari hamda «Qizil kitob»ga kirganlari quyidagilar: katta kurakburun yoki qilquyruq (Amudaryoda), kichik kurakburun yoki toshbaqir (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Qashqadaryoda), Sirdaryo kurakburuni yoki filburun (Sirdaryo, Chu), mo'ylov baliq yoki suryon (Amudaryo, Sirdaryo, Chu, Ili), bahri baliq (Amudaryo, Sirdaryo, Balxash ko'lida) va boshqalar.

Suv havzalarida yana Amudaryo foreli, oddiy cho'rton (Amudaryo va Sirdaryoda), oddiy oqqayroq (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va bashqalar), tanga baliq, laqqa baliq, lesh, ship (Amudaryoda), xramulya, sazan (Taujan va Murg'obda) uchraydi. Issiqko'lda sazan, goley, osman, chebek, chebachak kabi baliqlar, o'lkaning deyarli hamma daryolarida marinka (qora baliq) yashaydi.

O`rta Osiyo tog`larida quyidan yuqoriga ko`tarilgan sari tabiat unsurlarining xususiyati o`zgarib, tuproq-o`simlik qoplaminig balandlik mintaqalanishi mavjud. Tabiat unsurlarining ayniqsa o`simlik qoplaminig o`zgarishi o`z navbatida hayvonlarning yashash sharoitiga, ozuqa zanjiriga ham ta'sir etib balandlik mintaqalanish alomatlari yuz beradi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, muayyan balandlik mintaqqa qanchalik pastda joylashsa, faunasining tarkibida chalacho`l va cho`l hayvonlar vakillari ko`p bo`lib, yuqoriga ko`tarilgan sari kamayib, aksincha, tipik tog`qa xos hayvonlar vakillari ortib boradi.

O`rta Osiyo tog`lari faunasining yana bir o`ziga xos xususiyati shundaki, uning Jung`oriya Olatovidan Pomirgacha bo`lgan hududlarida yashovchi Markaziy Osiyo tog` takasi janubda joylashgan Kopetdog`da uchramay, uning o`rniga shoxsiz taka jayron uchraydi. Yoki Jung`oriya Olatovida, Tyanshan, Oloy va Pomir tog` tizmalarida Markaziy Osiyo qo`yi (arxar), ko`k sug`ur, qizil sug`ur, Hindiston pishchuxasi, qizil pishchuxa, Himolay va Tibet ulari tarqalgan bo`lsa, aksincha, Kopetdog`da Hindiston va O`rta dengizbo`yi faunasining vakillari -qoplon, gepard, chiyabo`ri, afg`on tulkisi, ko`zoynakli ilon, ko`lvor ilon, qalqontumshuq ilonlari tarqalgan.

Tog`lardagi hayvonlarning cho`l hayvonlaridan farqli xususiyatlaridan yana biri, yilning sovuq faslida iqlimiy sharoitning noqulayligi tufayli passiv hayot kechirib, ba'zilari uyquga ketsa, aksincha, cho`l hayvonlarining aksariyat qismi (qishda va qaroratning yuqoriligi tufayli ochdi) passiv hayot kechiradi.

Adir balandlik mintaqasi. Cho`l (zonasi) mintaqasi 400 450 m balandlikkacha davom etib, so`ngra adir mintaqasi boshlanadi. Adir balandlik mintaqasi 1200 m, ayrim hollarda 1600 m balandlikkacha ko`tariladi. Lekin hayvonlar tabiatning harakatchan unsuri bo`lganligi tufayli cho`lga xos bo`lgan ba'zi turlar (cho`l toshbiqasi, dumaloqbosh kaltakesak, qo`shoyoq, sug`ur, sariq vamalla yumronqoziq, echkemar, sariq ilon va boshqalar) adirning quyi qismida ham yashaydi. Shuningdek, tog`da yashaydigan hayvon turlarining ba'zilari adirlarda ham uchrashi mumkin.

Adir balandlik mintaqasida sut emizuvchilardan tulki, bo`ri, bo`rsiq, quyon, sassiqko`zan, olaxurjun, turkiston kalamushi kabilar yashaydi. Bulardan tashqari, yama jayra, ko`rsichqon, turkiston agamasi, tog` ilon, chipor ilon, qora ilon, ko`lvor ilon, turkiston kobrasi, shalpangquloq kirpi (tipratikan) uchraydi. Bobotog`ning 600—900 m balandliklarida tog` daralarda qoplonlar yashaydi.

Adir mintaqasida qushlar ko`p, ularning eng muhimlari burgut, chil, kaklik, miqqiy, bedana, ko`kqarg`a, soch, ukki, dala chumchug`i, tuvaloq, qirg`iy, qironqara, boltaotar, ilon burgut, itolqa, so`fito`rgay, boyo`g`li (boyqush) kabilar hisoblanadi.

Adirlardagi suv havzalarida suv kalamushi, ondatra, norka kabi hayvonlar yashaydi.

Tog` balandlik mintaqasida (1200—1600 m dan 2500—2800 m gacha) yoz adirga nisbatan salqin va namrok, qishi sovuq, o`simliklar, ayniqsa, daraxt va butalar serob bo`lib, o`rmonlarni hosil qiladi, o`rmonlar, tagida esa har xil o`tlar o`sib, hayvonlar uchun oziq hisoblanadi. Lekin tog` mintaqasining relyefi bir xil bo`lmasdan; qoyali tog`lar, ular orasida vodiylar, zovlar mavjudligi hayvonlar uchun noqulay sharoit vujudga keltirib o`sha sharoitga moslashishga sababchi bo`lgan. Buning, ustiga haroratning pastligi tufayli ba'zi hayvonlar chunonchi sudralib yuruvchilar kam. Onda-sonda oloy tog` iloni, Himolay agamasi, turkiston agamasi, shuningdek kulrang olaxurjun, kichik qushoyoq, shalpangquloq kirpi kabilar uchraydi.

Tog` mintaqasida kemiruvchilardan o`rmon sichqoni, oq sichqon, turkiston kalamushi, shuningdek, g`orlarda, toshloqli yerlarda oq suvsar; bargli o`rmonlar va archazorlarda tog` suvsari, qunduz, o`rmon olmaxoni, o`rmon sonyasi yashaydi.

Tog` mintaqasida yovvoyi cho`chqa, qo`ng`ir ayiq, qoyali yerlarda: jayra, g`orlarda ko`rshapalak, Ko`hitang tog`ida va Kopetdog`da sirtlon, g`arbiy Tyanshan, Oloy va Pomir tog`larida silovsin, qizil va ko`k sug`ur, Oloy va Pomirda marhur, Buxoro qo`yi uchraydi. Tog` mintaqasida yana arxar, manul, qoplon, yovvoyi qo`y-olhar, burma shoxli tog` echkisi, bo`ri, tulki, bo`rsiq, quyon; qushlardan burgut, yapaloqqush, tasqara, itolga, qumri, kaklik, zarqaldoq,

boltatumshuq, bulbul, tog` chumchug`i; daryolarida qunduz, filburun baliq, mo`ylov baliq, qilquyruq (katta qulokburun baliq), qora baliq, amudaryo foreli, oddiy cho`rtan, xoramulya, Turkiston laqqachasi uchraydi.

Yaylov balandlik mintaqasi 2800 (3000) metrdan balandda bo`lgan hududlarni o`z ichiga oladi. Bu balandliklarda relyef murakkab bo`lib, doimiy qor bilan qoplangan tog` cho`qqilari, ular orasidagi vodiylarda muzliklar, tik va qoyali tog` yonbag`irlari, chuqur zovlar mavjud. Buning ustiga qishi davomli, sovuq, yozi kisha va salqin, o`simlik qoplami siyrak, daraxtsiz, subalp va alp o`tloqlari yaxlit, tutash emas. Bunday tabiiy sharoit o`z navbatida hayvonot olamiga ham ta'sir etib, ularning turlari va miqdori tog` balandlik mintaqasiga nisbatan kam. Shuningdek, yaylov mintaqasidagi hayvonlarning aksariyati tosh rangida bo`lib, dushmanidan yashirinishga moslashgan, qoyalardan chaqqonlik bilan tezda sakrab o`tish xususiyatiga ega. Kechalari harorat 00 dan pastga tushib ketganligi sababli hayot yo`qdek tuyulib, kunduzlari faol hayot kechiradi. Haroratning pastligi tufayli yaylov mintaqasida sudralib yuruvchilar kam. Sudralib yuruvchilardan chinqiroq ilon, oloy tog` iloni, Himolay agamasi uchraydi. Yaylov mintaqasida ko`k qurbaqa; kemiruvchilardan qizil, ko`k, Oltoy va Menzibir sug`uri, oq suvsar yashaydi.

Yaylov balandlik mintaqasida yirik, sutemizuvchilardan qyng`ir ayiq, ilvirs, tog` takasi, Markaziy Osiyo kiyigi, arxar, muflon, qor qoplani, bo`ri, tulki; qushlardan ular yoki Himolay kurkasi, boltayutar, tog` zog`chasi, Himolay qora kurkasi, tog` to`rg`ayi Hind tog` g`ozi yashaydi.

Hayvonlarning xo`jalikda tutgan o`rni va hayvonot resurslari. hayvonlar tabiatning bir unsuri sifatida xalq xo`jaligiga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Ba'zi hayvonlar, chunonchi, cho`l toshbaqasi, malla yumronqoziq, plastinka tishli kalamush, jayra, chumchuq; ba'zi qo`ngizlar, chigirtkalar, qishloq xo`jalik ekinlarini nobud qilsa, ba'zi zararkunanda hashorotlar: oq kappalak, paxta kanasi go`zalarga katta zarar etkazadi. Zaharli hasharotlardan qoraqurt, chayon, zaharli ilonlar uy va yovvoyi hayvonlarni chaqib o`lishiga sababchi bo`lsa, burga, kana kabi parazitlar hayvon qonlarini so`rib, ularga salbiy ta'sir etadi.

O'lka tog'laridagi o'rmon sonyasi, ko'rsichqon, turkiston kalamushi, jayralar donli ekinlarga va mevali daraxtlarga katta zarar etkazadi. Faqat bitta turkiston kalamushi 14—20 kg yong'oq mevasini qish uchun iniga g'amlab qo'yadi, yoki o'sha kalamushlar ba'zi joylardagi yong'oq hosilini 25 foizigacha nobud qiladi.

O'lkadagi yaylov va pichanzorlar maydonining qisqarishiga, hosildorligining pasayishiga ko'r sichqonlar ham katta ta'sir etadi. Faqat bitta ko'rsichqon yiliga o'rta hisobda 2 m³ tuproqni pichanzorlar ustiga chiqarib tashlaydi. Bu har yili ko'rsichqonlar chiqarib tashlagan tuproqlar hisobiga o'simliklarning hayvonlar iste'mol qiladigan qismining 15—20 foizi, ba'zi yerlarda 36 foizi qisqaradi. Plastinka tishli kalamush, yumronqoziq, katta qum sichqon kalamushlar sug'orish inshootlarini, temir yo'l ko'tarmalarini ilma-teshik qilib, zarar keltiradi. Ba'zi hayvonlar, chunonchi sichqonlar, kalamushlar, sug'urlar, pashsha va chivinlar har xil katalliklar tarkalishiga sababchidirlar.

O'rta Osiyo hayvonlarining ayrimlari mo'yna tayyorlashda ham ahamiyati katta. Tulki, qarsak, qushla, to'qay va cho'l mushugi, bo'ri, chiyabo'ri, ayiq, qor qoploni, bo'rsiq, qizil va Menebir sug'uri, yumronqoziq, suvsar, plastinka tishli kalamush, ondatra, nutriya kabilar mo'ynali hayvonlar hisoblanadi.

Ba'zi hayvonlar aholini go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashda ham ahamiyatlidir. Bunday hayvonlar qatoriga sayyuq, to'ng'iz, jayron, arxar, tog' takasi, Markaziy Osiyo kiyigi, ilvirs, buxoro bug'usi, ayiq, kaklik, qirg'ovul, chil, bedana, Himolay kurkasi, g'oz, o'rdak, cho'l toshbaqasi kabilar kiradi. Go'sht muammosini hal qilishda suv havzalaridagi baliqlarning ahamiyati ham kattadir.

O'lka hayvonlarni ichida har xil qimmatbaho dorilar, tayyorlash uchun zarur bo'lgan zaxiralarni gyurza (ko'lvor ilon), qumcharx iloni, qapcha ilon (qobra), dasht qora iloni kabi ilonlardan hamda qoraqurtlardan olinadi.

Qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi foydalanish mumkin bo'lgan foydali hasharotlar ham mavjud. Shular jumlasiga xonqizi, turli yaydoqchilar, oltinqiz, traxogramma, ayrim yirtqich qo'ngizlar, beshiktervatar, chumolilar kiradi.

O'lka hayvonlarining ko'pchiligi chunonchi, asalarilar, qushlar, o'simliklarni changlatishda, ko'payishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi hayvonlar esa ilmiy

tadqiq va tibbiyotda har xil tajribalar o'tkazish uchun ishlatiladi. Shunday hayvonlar jumlasiga ko'l qurbaqasi, kalamushlar, sichqonlar, quyonlar kiradi.

Yovvoyi hayvonlardan ularni uy hayvonlari bilan chatishtirib yangi zotlarni yaratishda ham foydalaniladi. Hozir Qozog'iston va Qirg'iziston yovvoyi qo'yi- arxarni mayin junli qo'y bilan chatishtirish tufayli yangi zot Qozog'iston arxaromerinos deb ataluvchi qo'y vujudga keltirildi. Uning og'irligi 30 kg gacha bo'lib, juni mayin va sifatli hamda baland tog'li sharoitga mos. Yoki tog' takasi bilan angor va mahalliy qozoq echkisini chatishtirish tufayli tog' sharoitiga moslashgan sifatli, mayin junga ega bo'lgan echkilar yaratildi.

O'lka faunasidan foydalanish oqibatida, ya'ni hayvonlarni o'ylamay-netmay, qonun-qoidalarga rioya qilmay ov qilish tufayli bir qator hayvon turlari kamayib ketmoqda. Buning ustiga tabiiy landshaftlarni tezkorlik bilan o'zlashtirilishi, yangi-yangi qishloqlar, zavod-fabrikalariing vujudga kelishi, tog'-kon sanoatining ko'payishi, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish, tabiatdan rekreatsion maqsadlarda foydalanish va boshqalar oqibatida hayvonlar yashash, sharoitlaridan (makonlaridan) mahrum bo'lmoqda. Bular o'z navbatida juda ko'p hayvon turlarni va sonini keskin kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Tabiat, ayniqsa, hayvonlarga noto'g'ri munosabatda bo'lish oqibatida ayrim hayvon turlari noyob turga aylanib (xongul bug'usi, jayron, qulon, tosh suvsari, arxar, tog' takasi, kiyik (maral), ko'k sugur, qung'ir ayiq, Hind asalxo'ri, turkiston qunduzi, sirtlon, silovsin, qiriquloq, qoplon, ustyurt qo'yi, qizilqum va buxoro yovvoyi qo'ylari) qolsa, ba'zilari, chunonchi turkiston yo'lbarsi butunlay yo'q qilindi. Agar miqdori kamayib borayotgan hayvonlarni o'z vaqtida muhofaza ostiga olinmasa ular ham turkiston yo'lbarsi singari yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ammo shu tufayli «Qizil kitob» tashkil etilib, unga quyidagi hayvonlar kiritilgan. Sutmizuvchlardan — katta shalpakgqulaq, shalpanquloq, ko'rshapalak, ko'k sug'ur, katta qushoyoq, qo'ng'ir ayiq, olako'zan, Hind asalxo'ri, turkistbn qunduzi, sirtlon, silovsin, qoraquloq, qoplon, irbis, gepard, xongul, jayron, yashrxur, ustyurt qo'yi (arxal), qizilqum yovvoyi qo'yi, buxoro qo'yi, arxar; qushlardan bir qozon, oq va qora laylak, qizil g'oz, oqqush, marmar urdak, uzun va oq dumli burgut,

qirg'iy, burgut, cho'l burguti, boltayutar, qumay, lochin, itolga, oq turna, tuvaloq sudralib yuruvchilardan — qurbaqabosh, echkemar, chipor kaltakesak, kapchabosh ilon (kobra); baliqlardan — bahri baliq, qilquyruq, kichik qurbaqaburun, sirdaryo kurakburuni, mo'ylov baliq (sug'yon) O'rta Osiyo hayvonlarini muhofaza qilib, noyob turlarinn ko'paytirishda qo'riqxonalar, buyurtmalariing ahamiyati katta.

O'lka hududida bir qancha qo'riqxonalar va buyurtmalar mavjud. Ularning eng muhimlari To'rg'ay botiqidagi Naurzum (qushlar ekologiyasini o'rganadi), Qozog'iston past tog'laridagi qurgalji (suvda yashovchi qushlar ekologiyasini o'rganadi), Orol dengizidagi Borsakelmas (sayg'oq, qulon, jayron, qum yumronqozig'ini muhofaza qiladi), Ustyurt platosidagi qoplonqir (Ustyurt qo'yini, qora qulonni, gepard qoplonni muhofaza qiladi), Turkmanistondagi Badg'iz (qulonni muhofaza qiladi), O'zbekistondagi qizilqum (buxoro yoki xongul bug'usi, jayron, to'qay mushugini muhofaza qiladi), Zarafshon (tustovuqni muhofaza qiladi), Surxondaryo (ilvirs, qoplon, qizil sug'ur, shoxdor echkini muhofaza qiladi), Hisor (oq tirnoqli ayiq, qoplon, qizil sug'urni muhofaza qiladi), Nurota (burgut, kaklik, alhar, suvsarni muhofaza qiladi), Chotqol (ko'k sug'ur, ayiq, ularni muhofaza qiladi), Zomin (qo'ng'ir ayiq, tog' takasi, suvsarni muhofaza qiladi), Tojikistondagi Pahlavon to'qay Tigrovaya balka (buxoro bug'usi, jayron, qirg'ovulni muhofaza qiladi), Qirg'izistondagi Issiqko'l (g'oz, o'rdak, maral, qirgovulni muhofaza qiladi), Qozog'istondagi Almati (tog' takasi, tog' qo'yi, maral, qor qoplonini muhofaza qiladi), Oqsuv-Jabalg'a (tog' takasi va qo'yi, qor qoploni, jayra, ular, kaklikni muhofaza qiladi). Hozirda qo'riqxonalarda o'sha hudud landshafti, shu jumladan hayvonot dunyosi tabiiy holicha saqlanib, ov qilish mutlaqo man etiladi.

II. Bob. Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodlari.

2.1 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning maqsadlari va vazifalari.

Har bir mavzu o`qitilishda o`qituvchining pedagogik mahorati birinchi o`rinni egallaydi. O`qituvchi dars maqsadidan kelib chiqqan holda darsni yangi pedagogik texnologiya asosida o`tkazsa ham ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Dars maqsadiga erishishda o`qituvchi o`qitish metodlarini juda mukammal bilishi ham o`rin egallaydi.

Har bir o`qituvchi yoki biz bo`lajak o`qituvchilar ham bir darsga kirishdan avval, o`z maqsadimiz va vazifalarimizni chuqur anglagan holda tayyorgarlik ko`rishimiz lozim. Shundagina biz o`qituvchilarni darsimizga qiziqtirib, o`zimizning jamiyatga kerakli inson pedagog bo`lib etishimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

A) Ta`limiy maqsadi:

Har qanday darsning o`z maqsadi bo`lib, o`qituvchi darsga kirishdan oldin bajaradigan ishlarni rejalashtirib olishi, o`z konspektiga maqsad qo`yishi dars davomida esa o`sha maqsadni amalga oshirish bundan chetga chiqmaslik kerak. Darsning maqsadi uning mazmuni asosida belgilanadi. Maqsad va mazmuni o`rtasida ma'lum bog`lanish mavjud.

Biz geografiya fanlarini o`qitishda «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`quvchilarga tushuntirayotganimida, maqsadimizni chuqur anglagan holda yondashishimiz kerak.

Umuman dars maqsadi 5 ta yo`nalishni o`z ichiga oladi. Geografiya fanlarini o`qitishda «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qituvchilar o`quvchilarga o`rgatayotganida ham mana maqsadlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishlari kerak.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusi bo`yicha o`tilgan mavzularni o`rganish jarayonida o`quvchilarda quyidagi bilim va ko`nikmalar hosil bo`ladi. O`quvchilarning mavzu bo`yicha olgan bilimlarini sinash va yanada mustahkamlash.

- O`rta Osiyo xududining tabiati bir butun xususiyatlarga hos ekanligini

o`rganish.

- O`rta Osiyo tabiat zonalarining ichki suvlari joylashishi jihatdan xududning geologik tuzilishi, relyefi va iqlim tuzilishiga xos ravishda juda notekis joylashganligini tushuntiradi.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarining xudud tabiatining tuzilishi taraqqiyotining bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarining xudud tabiati komponentlarining inson tomonidan o`zgartirilganligi va uning geografik hamda ekologik oqibatlari, tadbirlari xususida o`quvchilar ongida tushuncha hosil qilish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali suv resurslarning hosil bo`lishiga ko`ra turlari va ularning hududda taqsimlashda o`ziga xos xususiyatlarni ajratish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali suv resurslardan xalq xo`jaligida foydalanish va ularda ro`y berayotgan antropogen o`zgarishlar to`g`risida tushunchaga ega bo`lish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarining o`rganish orqali materik tabiatining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish va ularni baholash.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali materik tabiatida baykal, kaledon, gersin, alp burmalanishlarida ro`y bergan o`zgarishlarni o`rganish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali suv resurslarning xo`jalik maqsadlariga ko`ra turlarini ajratish. Ularning atrof-muhit ekologik vaziyatiga ta`sirini chuqur anglay bilish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali xudud tabiatining geografik rivojlanishining va suv resurslarining tarkib topish sharoiti va ularning turlari: er usti va er osti suvlari, ko`llar, suv omborlari va ularning atrof- muhit ekologik holatiga ta`sirini o`rganish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali xudud tabiatining geografik rivojlanishining va suv resurslarining tarkib topish sharoiti va ularning turlarini bilish.

B) Tarbiyaviy maqsadi:

«O`rta Osiyo tabiat zonalari» mavzusining tarbiyaviy maqsadi o`quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga qaratilgan.

Geografiya fanini o`qitishda «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning tarbiyaviy maqsadi o`quvchilarni aqliy, estetik, ekologik, vatanparvarlik kabi tarbiyaga yo`naltiriladi. Bunda o`quvchilarga xududimizning go`zal go`shalarini, ya'ni respublikamiz xududlaridagi Sitorai Moxi-Xossa, Sarmishsoy, Nurota, Kosim Shayx, Malik Robot, Registon, Shoximardon, Buxoro, Xiva, Samarqand kabi tarixiy va tabiiy yodgorliklar haqida tushuntirish ham mumkin.

«O`rta Osiyo tabiat zonalari» mavzusini o`qitishda har bir o`quvchi qalbida vatanga, tabiatga muhabbat, uning tabiiy boyliklarini qadrlash va asrab avaylash, kelajak avlodlarning musaffo tabiat qo`ynida yayrab ulg`ayishi, toza suv manbalaridan bahramant bo`lish tuyg`ulari kamol topadi. O`quvchilarni o`zaro bir-biriga yaqinlashtirish, mustaqil va ijodiy ishlash, mantiqiy fikr yuritish ko`nikmalarini tarkib toptirish. Tabiiy-iqtisodiy va ekologik tarbiya berish. Buyuk vatandoshlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Imom Al-Buxoriy, al-Farg`oniyning xizmatlari haqida gapirib, insonparvarlik ruhida tarbiyalash.

Buyuk pedagogik olim, mumtoz shoirimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko`p zamonlardan beri taqrid qilinib kelgan, muammolarning diqqatlariga suyangan muqaddas bir vazifadur”.

Shunday ekan, mohir o`qituvchi, murabbiyning vazifasi o`quvchiga dars jarayonida faqat nazariy ilmiy masalalarni o`rgatishdan iboratgina bo`lib qolmay, balki u bolaning dunyoqarashi, didi va saloxiyatini ham shakllantirish, har bir insonni erkin fikrlaydi degan yetuk shaxs bo`lib tarbiyalashiga xizmat qilishi lozim.

Har bir yetuk ma`rifatli murabbiy darsni ma`naviy va axloqiy, pok iymonli, insofli diyonatli, or-nomusli va mexr oqibatli shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qilishiga erishish lozim.

Jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti bilan o`zaro chambarchas munosabatda bog`langanligi, unga kelajak avlodni ham moddiy ta`minlovchi manba nuqtai-

nazari bilan bog'lovchi yuksak ma'rifatli va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Zero olimlarmiz ta'kidlaganidek "insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa bu tarbiyadur"

V) Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilar «O'rta Osiyo tabiat zonalari» mavzusini o'zlashtirishlari orqali o'z fikrini bayon etish, bevosita muloqat va nutq madaniyatini shakllantirish. Hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish bilan ular ongida quyidagi bilim va tushunchalar o'z o'rnini topadi.

- O'rta Osiyo hududining tabiati bir butun hususiyatlarga hos ekanligini o'rganish.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarining ichki suvlari joylashishi jihatdan xududning geologik tuzilishi, relyefi va iqlim tuzilishiga xos ravishda juda notekis joylashganligini tushuntiradi.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarining hudud tabiatining tuzilishi taraqqiyotining bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarining xudud tabiati komponentlarining inson tomonidan o'zgartirilganligi va uning geografik hamda ekologik oqibatlari, tadbirlari xususida o'quvchilar ongida tushuncha hosil qilish.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarini o'rganish orqali suv resurslarning hosil bo'lishiga ko'ra turlari va ularning hududda taqsimlashda o'ziga xos xususiyatlarni ajratish.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarini o'rganish orqali suv resurslardan xalq xo'jaligida foydalanish va ularda ro'y berayotgan antropogen o'zgarishlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarining o'rganish orqali materik tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni baholash.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarini o'rganish orqali materik tabiatida baykal, kaledon, gersin, alp burmalanishlarida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganish.
- O'rta Osiyo tabiat zonalarini o'rganish orqali suv resurslarning xo'jalik maqsadlariga ko'ra turlarini ajratish. Ularning atrof-muhit ekologik vaziyatiga

ta'sirini chuqur anglay bilish.

- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali hudud tabiatining geografik rivojlanishining va suv resurslarining tarkib topish sharoiti va ularning turlari: yer usti va yer osti suvlari, ko`llar, suv omborlari va ularning atrof- muhit ekologik holatiga ta'sirini o`rganish.
- O`rta Osiyo tabiat zonalarini o`rganish orqali xudud tabiatining geografik rivojlanishining va suv resurslarining tarkib topish sharoiti va ularning turlarini bilish.

G. Milliy istiqlol g`oyasini singdirish:

Milliy istiqlol g`oyasini singdirish borasidagi birinchi navbatda qilinadigan ishlar yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va insoniylik fazilatlarini payvand qilishdan iboratdir.

Har bir o`quvchi «O`rta Osiyoning tabiat zonolari» mavzusini o`rganishda o`sha davrda yashab ijod qilgan olimlar, sayoxatchilarning qilgan qahramonliklarini, qilgan tadqiq ishlari alohida e`tiborga olinib o`rganish alohida kasb etadi. «O`rta Osiyoning tabiat zonolari» mavzusi orqali xududning geografik o`rni, tekshirilish tarixi, geologic tuzilishi, iqlimi, tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari, suv resurslarining xilma xilligi, ularning hudud tabiatining tabiiy-iqtisodiy rivojlanishi bosqichlarini kelajak avlodga targ`ibot qilish, tushuntirish va o`rgatishni maqsad qilib qo`yish lozim.

«Orta Osiyoning tabiat zonolari» mavzusini o`rganishda har bir o`quvchi o`z oldiga tabiat boyliklarini va suv resurslarni qadrlash va uni asrab avaylab foydalanish, kelajak avlodning o`zi bilishi, tushunishi, qadrlashi hamda undan samarali foydalanish kabi tushunchalarni chuqur his qilmog`i lozim.

2.2 Umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodlari.

Geografiya ta'limida o`qituvchi o`quvchilarni faollashtiradigan o`zi va o`rganishi uchun qulay bo`lgan usul va uslublarni, o`qitish shakllarini, vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o`quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatib, o`quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

Ta'lim-tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o`tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo`nalishlari shu faoliyatdan ko`zda tutilgan maqsadlarni to`liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormoqda

O`quvchilarning geografik bilimlarini o`rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o`qituvchi tomonidan tashkil etilishiga bog`liq.

O`qituvchi o`quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, ularning zehniy qobiliyatlarini ishga soladigan usullarni tadbiq eta olsa, o`quvchilar o`sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o`qituvchi o`quvchilarga o`rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o`quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o`quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi.

Ta'lim metodlari o`quvchilarga bilim berish ko`nikma malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o`quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantiradigan bilimlarni mustaqil o`zlashtirishga o`rgatadigan, o`laroq ilmiy bilimni asoslangan to`g`ri dunyoqarash va e`tiqodni tarbiyalaydigan metodlarga tushuniladi.

Ta'lim metodlari o`qitishning umumiy va aniq maqsadlariga hamda maktab ta'limining mazmuniga ham bog`liq. Ilmiy-texnika jarayoni sharoitida an'anaviy

metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilmoqda. Ta'lim nazariyasi va geografiya ta'limida hozirgi kunda quyidagi tasnif keng tarqalgan:

1. Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra;
2. Didaktik maqsadlarga ko'ra;
3. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda ikki: «Yangi bilim olish metodlariga va olingan bilimlarni qayta tiklash metodlariga» ajratish mumkin.

Biz «Orta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini umumta'lim maktablarida o'qitishda «Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra» turlaridan foydalanib, darslarni tashkil etish uslublarini ko'rib chiqamiz.

Axborotlashtirish va axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish yo'nalishida Respublikamizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi qonunda bu dasturning tub mohiyati bayon etilgan. Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muxim talabradan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan bilim, kunikma va malakalarni xosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish ular tomonidan egallangan bilim, kunikma xamda malakalar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik maxorat xamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Biz hozir axborotlashgan jamiyatda yashaymiz. Demak axborot madaniyatini shakllantirish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi «inson-inson» va «inson-kompyuter».

«Inosn-inson»-o'zaro muloqot qilish, axborotni istagan shaklda taqdim etish, o'z nuktai nazarini bayon etish va o'zining xaqligini isbotlay bilish, umumiy qarorga kela olish hamda umumiy yutuqqa erishish uchun xamkorlik faoliyati dasturini tuzish ko'nikmalari bilan belgilanadi. Kompyuter-vositali kommunikatsion tarmoq va dasturiy apparat vositalariga tayanadi, ya'ni kompyuter tarmog'i, Internet

tarmog'i, elektron pochta, telekonferenstiyalar, shuningdek interfaol texnologiyalar va boshkalar.



Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim uslublaridan biri bu yangi pedagogik texnologiya bo'lib, bu pedagogik texnologiyaning ta'siri jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faolligi oshadi, o'quvchida mustaqil bilim olish extiyoji shakllanadi. Yangi pedagogik texnologiya o'quv jarayonida, fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini talabalarga yetkazish maqsadida videotasmalarga tushirib keltirilgan ishlab chiqarish korxonalarida jarayonlariga oid, lavhalardan kompyuter va axborotlar texnologiyalari asosida tayyorlangan ma'ruza va amaliyot darslarining elektron versiyalaridan, tarqatma materiallardan va x.k. manbalardan foydalanishi nazarda tutadi. Dars o'tish jarayonida keltirilgan misol va masalalar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'langan bo'lishligi mashg'ulotga oid bilimni talaba xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishga olib keladi va talabaning ta'lim olishdagi faolligini oshirishga imkon beradi. Bunday ta'lim turi talaba uchun ham qiziqarli xamda shu kungacha egallangan nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini qanchalik egallaganligini yana bir marta sinash imkonini beradi.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov «**Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi**» deb ko'rsatganining o'zi jamiyatimizning yuksalishida va uning rivojlanishida ilmning boshqa sohalari bilan bir qatorda zamonaviy geografiyaning ham tutgan o'rni alohida e'tiborga loyiq.

Zamonaviy geografiyani o'qitishda innovasion texnologiyalardan samarali foydalana olish eng birinchi navbatda o'qituvchining faoliyatiga, nazariy bilim darajasiga, tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik maxoratiga bog'liq. Bugungi kun ta'lim tizimining talablaridan kelib chiqqan holda innovasion texnologiyalardan geografiya darslarida mavzuga mos turda saralab olish va olib borishdan ko'zda tutiladigan maqsadlar quyidagicha taqsimlanadi:

- o'quvchilarning geografiya faniga va u orqali o'zi yashayotgan o'lka tabiatiga mehr-muhabbatni shakllantirish,

- ularning nazariy bilimlarni chuqur o'rganishida, o'zicha fikrlay olishi xamda o'rganilgan bilimlarni amalda bajara olishida muxim o'rinni egallash;


- o'rganilayotgan mavzuni yengil o'zlashtira olishga yordam berish va boshqada shunga o'xshagan axamiyatli vazifalarini o'z ichiga oladi.

Geografiya darslarni o'qitishda avvaldan takomillashtirilgan ta'lim metodlari: og'zaki bayon, suxbat, darslik va ko'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kuzatish va tajriba, amaliy ishlar va shuning bilan bir qatorda innovasion texnologiyalardan to'g'ri foydalana bilish-bu o'quvchilarning fikrlarni oydinlashtiradi, darsga jadalligini orttiradi.

O'qituvchining har bir dars jarayonida keng qo'llash imkoniga ega bo'lgan, o'quvchilar ongiga tez yetib borishi va puxta bilim, ko'nikmalar xosil qiladigan metod turi **bu-og'zaki bayon** metodidir. Og'zaki metodlar o'qitishda doimo eng ko'p qo'llanib kelingan. Bu metodlar o'qitish metodlari tizimida ustunlik qilgan davrlar ham bo'lgan. Ilg'or pedagoglar (Ya.A.Konenskiy, I.G.Pestalossi) bu metodlarni ortiqcha bo'rttirishga qarshi kurashganlar, ularni ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan to'ldirishning zarurligini isbotlaganlar.

O'qituvchining so'zi bilan bog'liq bo'lgan turli usullardan boshlang'ich va yuqori sinflarda turlicha foydalaniladi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchining yorqin, emosional hikoyasi ustunlik qilib, keyinchalik bu suhbat tobora kengroq to'ldirib boriladi. Yuqori sinflarda, ayniqsa, atriq, jamiyatshunoslik, adabiyot, jo'g'rofiya fanlarini o'qitishda bu sinf o'quvchilarining o'quv imkoniyatlariga muvofiq keladigan maktab ma'ruzasidan muvaffaqiyatli foydalaniladi.

Demak, o'quv materiallarini og'zaki bayon qilish usuli maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, deyarli hamma sinflarda o'quv fanlari bo'yicha qo'llaniladi. O'qitishning og'zaki usuli uch turga bo'linadi.



O'g'zaki bayon ta'lim tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib, u geografiya fanining zamonga mos ravishda rivojlanayotgan turli jabhalari va muammolari, yutuqlari to'g'risida tanishtiriladi. O'qituvchi nutqidagi mantiq intonatsiya, o'rg'uning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo'lishi o'qituvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashiga o'rgatadi, ma'lum xulosalarga olib keladi. Jonli nutq o'quvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar,

ko'rsatmali quollar va matnlar mazmunini tushuntirish, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr yuritishga ham yo'l ochib beradi.

O'g'zaki bayon boshqa metodlar bilan qo'shib olib borilishi kerak. O'qituvchining o'g'zaki bayoni shuning uchun ham muhimki, o'quvchi darsga oid ma'lumotlarni darslikdan, kitoblardan qayta-qayta o'zlashtirishi mumkin. Lekin o'qituvchining bayonini qayta-qayta eshita olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida darslikdan tashqari ma'lumotlardan keng foydalanish va mavzuning asosiy zaruriy qismlarini yodda qoladigan qilib ta'kidlab o'tmogi lozim.

«Orta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o'qitishda o'qituvchi og'zaki bayon metodidan foydalanib, Orta Osiyoning tabiat zonalari o'ziga xos jihatlarini o'quvchilar mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'rganadilar. Orta Osiyoning tabiat zonalaridagi ichki suvlarining juda murakkab bosqichlarni va tadqiqotlarni o'z boshidan kechirganligi, o'lkada tekshirilishlar juda ko'p ekanligini, har qaysi hududi o'ziga xos tekshirilishlarga ega ekanligini dunyoning tabiiy kartasidan foydalanib og'zaki bayon etadi.

Tabiat zonalari kartasidan foydalanib Orta Osiyoning tabiat zonalaridagi ichki suvlari hududning turli geografik davrlarda tekshirilish va tadqiqotlarni o'z boshidan kechirganligini ko'rsatadi. Orta Osiyoning tabiat zonalari hamda ularning ichki suvlari haqidagi ma'lumotlar xududning taraqqiyot davomida turli tabiiy jarayonlarini o'z boshidan kechirganliklarini, hududdagi to'g'lar, to'g' tizmalari, to'g' sistemalari, tekisliklar, pasttekisliklar, botiqlar, vodiylar va cho'llarda tarkib topgan suv resurslari to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni taqqoslash, statistika, jadval va diagrammalar, kartalar yordamidan foydalanib og'zaki bayon etadi.

O'g'zaki bayon metodi davomida o'quvchilar faoliyatini oshiruvchan turli usullar: taqqoslash, muhim joylarni kartadan toptirish, savol-javoblardan foydalanish, o'rganilgan masalalar yuzasidan xulosalar chiqarish lozim. O'qituvchilar bilim va ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishlari uchun ularning e'tiborini ko'proq asosiy masalalarga jalb qilish mavzuning asosiy va ikkinchi darajali o'rinlarini ajrata olishlariga imkoniyat yaratish lozim.

O`quvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarni kengroq ochib berish lozim bo`lganda tushuntirish metodidan foydalaniladi. «Orta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`rganish davomida xudud geografik o`rnining shakllanishi, geologik tuzilishi, rel`yefi, iqlimi, suv resurslari, tuproq, o`simlik va hayvonot dunyosining hosil bo`lishiga ko`ra turlari va ularning hududda taqsimlashda o`ziga xos xususiyatlarni tushuntirish va tabiiy boyliklarning vujudga kelishi xususiyatlarini ochib berish kabi tushunchalarini yetkazish lozim. Tabiat rivojlanishning ma`lum qonuniyat asosida borganligi ham diqqatga sazovardir.

Bu qonuniyatlarni doskada quyidagi tayanch reja asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

- Orta Osiyoning tabiat zonalari tabiatining bir butun hususiyatlarga hos ekanligini o`rganish. Buni o`rganish davomida xududning geologik tuzilishi asosan qaysi era va davrlarda shakllangan va bunga sabab nima?
- Orta Osiyoning tabiat zonalari joylashishi jihatdan xududning geologik tuzilishi, rel`yefi, iqlimi, suv resurslari, tuproq, o`simlik va hayvonot dunyosining tuzilishiga xos ravishda juda notekis joylashganligini tushuntiradi. Nima sababdan o`rganish davomida geologik taraqqiyotning asosiy bosqichlari Gersin va Alp burmalanishiga to`g`ri keladi?
- Orta Osiyoning tabiat zonalari tabiatining bir butun hususiyatlarga hos ekanligini o`rganish orqali tabiatining tuzilishi taraqqiyotining bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish.
- Orta Osiyoning tabiat zonalari tabiatining bir butun hususiyatlarga hos ekanligini o`rganish orqali xudud tabiat komponentlarining inson tomonidan o`zgartirilganligi va uning geografik hamda ekologik oqibatlari, tadbirlari xususida o`quvchilar ongida tushuncha hosil qilish.
- Dunyoning tabiiy kartasidan foydalanib Orta Osiyoning tabiat zonalari tabiatining o`ziga xosligini, xududining tabiat komponentlarining, tabiiy resurslarning joylanish rayonlarini belgilang?

Yuqoridagi savollar o`quvchilarda mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarishga, voqea hodisalarning sabablarini ajratishga va kelajakda muammolarni hal qilish tadbirlari

izlab fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazariy va amaliy materiallarni puxta, izchil bayon qilish ilmiy bilimlarni egallashning asosini tashkil etadi.

Hikoya-Bu usul maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Hikoyaning bir necha turi mavjud.

- **Kirish hikoya**—O'quvchilarni boshqa metodlar bilan tabiat komponenti tuzilishi mumkin bo'lgan yangi o'quv materialini idrok qilishga tayyorlaydi.
- **Bayon hikoyada** - o'qituvchi yangi mavzuning bayonini ochib beradi. Bayonni mantiqiy rivojlanib boradigan tarzda, reja bo'yicha aniq izchillikda, muhimlarini ajratgan, illyustratsiyalardan foydalangan holda olib boradi.
- **Xulosa – hikoya** odatda dars oxirida tabiat komponenti tuziladi. O'qituvchi asosiy fikrlarni yakunlaydi, xulosa va umumlashmalar qiladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoya ancha qisqa va aniq bo'ladi. Sinflarning o'rta guruhiga kelib, u ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Yuqori sinflarda hajmi anchagina katta o'quv materialini ajratilgan vaqt ichida bayon qilib ulgurish uchun ko'proq hikoyadan foydalaniladi. Lekin, bu yerda hikoya ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi. Hikoya yakunlangach, u suhbat va tushuntirishlar bilan to'ldiriladi.

O'quv ma'ruzasi. O'qitishning og'zaki usullaridan biri bo'lgan o'quv ma'ruzasi o'quv materialini og'zaki bayon qilish uchun mo'ljallanadi. Bu o'quv materialini hikoyadagiga nisbatan hajmining kattaligi, mantiqiy tuzilishi, obrazlari, isbot va umumlashtirishlarning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning yoki mashg'ulotning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda, ularni to'la qamrab oladi.

Ma'ruza asosan, o'rta umumiy ta'lim maktabining yuqori sinflarida, kasb – hunarkollejlari, litseylar va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi. **Maktab ma'ruzasi** - o'tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mihiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo'li bilan bir soatlik mashg'ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

Suhbat usuli - og'zaki bayon qilish usulining asosiy turlaridan biri bo'lib, maktablar tajribasida eng ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biridir. Ko'pincha, bu usul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. Chunki bu usulda ish ko'rilsa, dars asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi. Shunday suhbatlar mavjudki, bunday suhbat davomida o'quvchilar ilgari o'zlashtirganlarini eslaydilar, tizimga soladilar, umumlashtiradilar, xulosalar chiqaradilar, ulardan turmushda foydalanishga doir yangi misollarni axtaradilar.

O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi. O'qitishning tarbiyalovchi xarakterini kuchaytirish maqsadida dunyoqarash va e'tiqodni tarkib toptirishga qaratilgan suhbatlar ham qo'llaniladi. "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", darslarining kiritilishi munosabati bilan o'quv jarayonida etnik suhbatlardan foydalanishning imkoniyatlari ancha kengaydi.

Bilimlarni og'zaki bayon qilish usuli bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi.

1. Bayon qilinyotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Bayon qilinayotgan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini aniqlash va amalga oshirish lozim.

3. Bayon qilishda o'qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi, uning ravon, tushunarli bo'lishi hal qiluvchi omildir. Shuning uchun ham muallim o'quv materialini his-tuyg'uli ifoda qilib brishi ham nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

4. Bayon qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan ishlatilgan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilgan hollarda o'qituvchi ko'rsatgan ta'riflar yozib olinishi kerak. Mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi. Xullas, usullarini o'zlashtirish, takomillashtirish, dunyoviy, mintaqaviy va mahalliy muammolarni o'zlashtirishning amaliy ahamiyatini chuqur anglash, uning aniqlik darajasini oshirish kabi vazifalar davr talabi hisoblanadi.

Hikoya - o`quv matyeriallarini bayon qilish shakli bo`lib, asosan tasvirlash harakteriga ega. Bu uslubning ijobiy tomoni o`qituvchi o`quvchilar bilan ko`proq munosabatda bo`ladi. O`rta Osiyoning tabiat zonalari tabiatining bir butun hususiyatlarga hos ekanligini o`rganish orqali xududning tabiat zonalarining tarkib topishi, joylashgan geografik o`rni, hudud rel`eflari, iqlimi, tabiiy daryolari va soylari, ko`llar va ularning tarqalgan havzalari, geografik zona, geografik o`lkalar va rayonlar, landshaftlarning O`rta Osiyo hududidagi xususiyatlarini tushuntirishda hikoya metodi qo`l keladi.

Hikoya davomida xududning geografik o`rni va tekshirilish tarixi, rel`efi, ichki suvlari, geografik zona, o`lka va landshaftlarni geografik kartadagi ko`rsatgichlardan foydalanib tushuntirilsa hikoya qiziqarli chiqadi. Hikoyada darsning turli bosqichlarida va darsga xotima yasaydi. O`qituvchi hikoyani o`quvchinig yoshiga moslab tanlaydi. 6-sinflarda hikoya juda soddalashib ketmasligi unda tushunchalar masalan, O`rta Osiyo xududining geografik o`rni va tekshirish tarixi, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, geologik-geografik xususiyatlari, tarixiy taraqqiyotning rivojlanish darajasi bir-biriga nisbatan uzviy bog`langan va hakozi tushunchalar hamda atamalar albatta aks etishi lozim.

Hikoya davomida o`qituvchi nazorat savollarini berib borishi, masalan, O`rta Osiyo xududidagi eng yirik tabiat zonalaridagi olib borilgan katta tekshirilishlar xududlarning qaysi joylarida amalga oshirilgan, ular qaysi mintaqada joylashgan, ularning joylashgan hududlari, nomlari, qachon o`rganilish boshlangan, asosan dunyodagi qaysi mamlakatlarda tekshirishlar va tadqiqotlar olib borilgan kabi savollarni berib borish mavzuning puxta o`zlashtirilishini ta`minlaydi.

Tushuntirish- o`qituvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarning mohiyatini ochib berishda keng qo`llaniladi. Bu metod geografiya ta`limida bilimlarni izchil o`rganish imkonini byeradi. O`rta Osiyoning tabiat zonalaridagi tabiiy sharoiti, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari-daryolar, ko`llar, suv omborlari, er osti suvlari, o`simlik va hayvonot dunyosining hosil bo`lishi va rivojlanishi, ularning sabablari, geografik mintaqqa, zona, o`lka, rayon tushunchalari va ularning rivojlanish davrlari, hududga ta`siri, to`g` jinslarining to`planishi, hosil bo`lishi,

tarqalishi, yoshi tushunchalarini izohlashda tushuntirish metodidan samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari O`rta Osiyoning tabiat zonalaridagi tabiiy sharoiti, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, o`simlik va hayvonot dunyosining hosil bo`lishi va rivojlanishi, ularning sabablarining xususiyatlarini xududlar bo`yicha tahlil qilib izohlashda tushuntirish metodidan foydalanish mumkin. Bunda o`qituvchi o`quvchilarni voqea va xodisalardan xabardor qiladi, ular o`rtasidagi aloqalarni ochib beradi, xulosalar chiqaradi va yakunlaydi. O`qituvchi bunda qisqacha muammoli savollar berishi mumkin. Masalan: O`rta Osiyoning tabiat zonalaridagi tabiiy sharoiti, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, ichki suvlari, o`simlik va hayvonot dunyosining hosil bo`lishi va rivojlanishi, ularning sabablari haqidagi bilimlarning geografik xususiyatlarining Yevrosiyo materigining tabiat zonalaridagi tabiiy sharoiti, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, o`simlik va hayvonot dunyosining hosil bo`lishi va rivojlanishi, ularning sabablari haqidagi bilimlarni nisbatan farqlanishini, uning sabablari haqidagi fikrlarni aniq faktlar asosida izohlab berishi lozim.

Tushuntirish bilan birga kartalar, diagrammalar, karta sxemalardan foydalanish ham ijobiy natijalar berib, bu o`quvchilar xotirasi va mavzuning chuqur o`rganishga sabab bo`ladi.

O`qituvchi va o`quvchining ikki tomonlama aloqasi tushuntirish metodini takomillashtirishga yordam beradi. Tushuntirish sodda, aniq, ravon bo`lishi lozim.

Maktab geografiya ta`limida alohida ahamiyat kasb etadigan **suhbat** metodida esa o`qituvchining savoli va o`quvchining javobi asosiy o`rin tutadi. Bu metodning bosh talabi mukammal o`ylangan savollar va o`quvchilar qaytarishi mumkin bo`lgan javoblarning puxta tuzilishidir. Bunda savol aniq bo`lishi, ya`ni o`quvchilar suhbat nima ustida borayotganini hamisha tushunishlari shart. Mavzu e`lon qilingandan so`ng savollar o`rtaga tashlanadi. Suhbat mantiqiy qismlarga bo`linadi, o`qituvchi o`quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarini tuzatadi va to`ldiradi. Shundan so`ng o`quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Suhbat metodi o`qituvchi savoli va o`quvchining javobi asosida o`quv materialini o`zlashtirishi, mavzu mohiyatini tushuntirilish darajasi va bilim egalashning savol- javob shaklidir.

Suhbat metodini tashkil etishda qo`yiladigan asosiy talab- mukammal o`ylangan savollar tizimi va unga o`quvchining berishi mumkin bo`lgan javoblarining puxta tizimidir.

«Orta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`tishda keng ko`lamdagi yevristik suhbatdan foydalanib quyidagi savolar tizimini o`quvchilar e`tiboriga havola qilish mumkin

- Orta Osiyoning tabiat zonalari qanday hususiyatlarini o`zida aks ettiradi?
- Orta Osiyoning tabiat zonalari nima sababdan turlicha?
- Hududda tabiat zonalari bilan bog`liq tog`larining uzunligi, maydoni, balandligi, cho`qqisi qanchaga teng?
- Orta Osiyoning tabiat zonalaridagi olib borilgan yirik tadqiqotlar nomlarini ayting.
- Orta Osiyoning tabiat zonalaridagi eng uzun tog` sistemasidagi qaysi tabiat zonasi qanday tadqiqotchi tomondan o`rganilgan va u qanday nom bilan ataladi?
- Orta Osiyoning tabiat zonalari kartasini tahlil qiling va zonalarni joylanishini yozuvsiz kartada ishleng?
- Orta Osiyoning tabiat zonalaridagi yirik suv havzalari zaxiralarning kashf etilishi bilan bog`liq nomlarini ayting?
- Orta Osiyoning tabiat zonalarida ro`y bergan yirik suv havzalaridagi tadqiqotlar olib borgan olimlar nomlarini ayting?
- Orta Osiyoning tabiat zonalaridagi yirik tabiat komplekslarining kashf etilishi bilan bog`liq nomlarini ayting?
- Orta Osiyoning tabiat zonalarining qaysi hududlarida tabiat resurslari keng tarqalgan, buning sababi nima va kim tomondan kashf qilingan?

Keng ko`lamdagi bunday **suhbat** asosan yangi bilimlarni o`rganish va yakuniy takrorlashda qo`llanib, savollar bir-birini to`ldirishi, sabab-aloqadorlik

qonuniyatlarini tushuntirishga yordam qilishi lozim. Savollarning javobini aytishga o`quvchi qiynalganda yoki javob to`liq bayon etilmaganda, o`qituvchi javoblar mazmunini o`zi keng yoritib berishi lozim. **Suhbat** boshqa metodlar bilan qo`shib olib boriladi. Bu metodlar bilan yana bir ijobiy xususiyati shundaki bu metodda mavzu matyerialini puxta o`rganish bilan bir vaqtda o`quvchilar bilimni aniqlash imkoni bo`ladi.

Ma`ruza metodidan umumtalim maktablarining yuqori sinflarida geografiya darslarida murakkab mavzuli va keng hajmli mavzularda foydalaniladi. Ma`ruza jarayonida mavzu ravon, ilmiy va izchillik asosida boshqa metodlar bilan uyg`unlashtirilib olib boriladi. Ma`ruza vaqtida xarita, jadval, grafik, tasvirli qo`llanmalar, doska va turli vositalardan unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

- Ma`ruza ilmiy jihatdan mukammal bo`lishi lozim.
- Ma`ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko`p jihatdan oydinlashtiradigan bo`lishi kyerak.
- Ma`ruza mazmunan ko`rgazmali bo`lishi kyerak.
- Ma`ruza o`quvchilarni fikrlashga, voqea va hodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o`rgatishi kyerak.
- Ma`ruzaning o`quvchilarga etib borish uchun o`qituvchi o`zining nutqi ustida ko`p ishlashi lozim.
- Savollar ma`ruza yakunida byerilishi maqsadga muvofiq.

Geografiya darslarida o`qituvchining o`qib berishi.

Matn badiiy jihatdan boy va ta`lim-tarbiya jarayonida ko`p usullarini qullashi imkoni tug`ilgan vaqtlarda bu metoddan foydaniladi. Mavzuga oid matnlarni geografik kitoblar, jurnal va gazetalardan olish mumkin.

Mavzuga oid badiiy mantlar: A. Tasman, Jeyms Kuk, Vasgo da Gama, V. V. Yunker Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Imom Al-Buxoriy, al-Farg`oniy va boshqa tadqiqotchilarning asarlarada O`rta Osiyoning tabiat zonalaridagi tabiiy sharoiti, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, ichki suvlari, o`simlik va hayvonot dunyosining hosil bo`lishi va rivojlanishi, ularning sabablari haqidagi bilimlarning geografik xususiyatlari haqidagi o`sha davrdagi geografik hamda

tektonik rivojlanishlari haqidagi ma'lumotlarni o'qib berish darsni qiziqarli va mazmunli o'tilishiga sabab bo'ladi.

Mavzuga oid gazeta va jurnallardagi yangiliklar: masalan, suv havzalari haqidagi geografik taraqqiyot va davr muammolari, yangi ochilayotgan suv havzalari haqidagi ma'lumotlarni o'qib berish darsni zamon va fan-texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtirib olib borishga imkon beradi.

Geografiya darsligi bilan ishlash metodlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

- Matn bilan ishlash.
- Savol va topshiriqlar bilan ishlash.

O'rta Osiyoning tabiat zonalari mavzusidagi tabiiy sharoiti, rel'efi, iqlimi, ichki suvlari, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosining hosil bo'lishi va rivojlanishi, ularning sabablari haqidagi bilimlarning geografik xususiyatlarining matni bilan ishlaganda geografiya o'qituvchisi o'quvchini matnni o'qib izchil o'rganishga erishishi lozim. Darslikda mavzuning boshlanish qismida bundan oldingi geografiya darslarida geografik orni va tekshirilish tarixi mavzusini xotirada esga olish va ba'zi geografik tushunchalar mazmuni so'rash savollari mavjud. Mavzu matni bir necha qismlarga bo'linib har bir darsni mana shu qismlarga muvofiq reja asosida o'tish lozim. O'rta Osiyoning tabiat zonalari tanishtirgan so'ng, tabiiy sharoiti, rel'efi, iqlimi, ichki suvlari, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosining hosil bo'lishi va rivojlanishi, ularning sabablari haqidagi bilimlarning geografik xususiyatlari bayoni ketma-ketlik asosida ta'riflanadi. Mavzu yakunida matnni mustahkamlash va olingan bilimlarni rivojlantirish maqsadida savol va topshiriqlar berilgan. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanishlarini takomillashtirish maqsadida savollardan va amalda bajarish uchun mo'ljallangan topshiriqlardan iborat. «O'ylab ko'ring va amalda bajarish» nomli topshiriqlar tizimi berilgan. O'quvchilar mustaqil ravishda O'rta Osiyoning tabiat zonalarini darslik matni va qo'shimcha adabiyotlar hamda o'qituvchi to'ldirishlari mumkin.

O`rta Osiyoning tabiat zonalari.

Tabiat zonalari.	Daryolar masofasi (km)	Hududining havza maydoni	Bosh daryo boshlandigan hudud	Bosh daryo boshlangan vaqti	Qo`shimcha daryolar	Ko`p daryolarda tadqiqot olib borilgan vaqti	Qaysi ilmiy tashkilotlar ishtirok etgan
------------------	------------------------	--------------------------	-------------------------------	-----------------------------	---------------------	--	---

2.3 Umumta'lim maktablarining 7-sinflarida «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o'qitishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash.

Yangi asr bo'sag'asida biz sifat jihatdan tamomila yangi xalqlar jamiyatiga, chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikatsiya va axborot tizimga kirish uchun shaxdam qadamlarni bosmoqdamiz. O'sha jamiyatda o'z o'rnimizni topish anchagina tayyorgarlikni, bilimni talab qilishni ham bugun anglab yetmoqdamiz. Bosgan qadamlarimiz qat'iyatli va ishonchli bo'lishi uchun esa bizga zamonaviy, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab oladigan raqobatbardosh kadrlar zarur. Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining kadr-qiyamatini angelaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotga aniq maqsadga ega bo'lgan hur fikrlovchi insonlarni kamol toptirishda maktabning o'ni beqiyosdir.

Bugungi kunda butun jahonda tajribadan o'tgan, turli yunalishlar bo'yicha qo'llaniladigan uslublar bizning umumta'lim maktablarida sinovdan o'tmoqda.

Dars jarayonlarida savollarga har bir o'quvchi va bir guruh o'z fikr va mulohazalarini bildirib, bahs-munozara olib boradi. Bunda har bir o'quvchi o'z fikrini izohlab, muammoni yechish yo'llarini ilmiy asosda ifodalab berishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengayishiga, ko'proq manbalar, qiziqarli ma'lumotlar olish uchun intilishga, dunyo qarashida qiziqishini ortib borishiga olib keladi.

Geografiya darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni geografik o'yinlar va ularning xilma-xil shakllari, geografik jumboqlarni yechish, raqamli diktantlar tuzish va yechish, berilgan geografik tavsiflarni xatosini topish, shartli belgilarni tilga kiritish, test topshiriqlarini yechish, izohlash kabi materiallar asosiy o'rinni egallaydi. Geografiya darslarida televideniya, radio orqali beriladigan an'anaviy o'yinlardan foydalanish ham samarali natijalar beradi. Dars jarayonida bu o'yinlarni qo'llash o'quvchilarning fanga, mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va ularning darslikdan tashqari yana qo'shimcha adabiyotlar, internet ma'lumotlaridan

foydalanish imkonini beradi. Bu o'yinlar o'quvchilarda badiiy mahoratni va topqirlikni talab etadi.

«Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor munosabatlari sharoitida yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni bilimli va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashdek yuksak vazifani bajarishni taqazo etadi.

Jumladan maktab geografiyasining ham boshqa fanlar kabi yoshlarni vatanparvar, ona yurt boyligiga boylik qo'sha olaydigan, ularni ko'z qorachig'iday asrab-avaylaydigan insoniy fazilatlarini shakillantirishda xizmati beqiyosdir. Bu vazifalarni biz ilgo'or tajribalarni o'rgangan holda, darslarga yangicha ijodiy yondashib, ta'lim samaradorligini oshirish orqali erishishimiz mumkin. Ma'lumki geografiya ta'limida turli uslubiy yo'nalishlar bo'lib, ularning barchasi o'quvchilarni puxta bilim olishlariga ko'maklashadi. Geografik o'yinlar ham o'quvchilarni fanga qiziqishi, rivojlantirish va o'rganilgan bilimlarni amalga tadbiiq qilish imkonini beradi.

Lekin o'yinlar haqida turlicha fikrlar bo'lib, ularning o'rni, vaqti va jihozlari o'tkazish ulubi aniq ishlab chiqilgan emas., o'yinlarni qo'llash borasida qator uslubchilarimiz tavsiyalari mavjud bo'lsada, ulardan ijodiy foydalanishni taqazo etadi. Chunki o'quvchilarning bilimi tayyorgarligi va yoshini hisobga olish o'yinlarni tashkil qilishni va natijalarini xulosalash murakkab jarayondir. Agar o'yinlarni qo'llash ahyon-ahyonda bo'lsa, vaqtdan yutqaziladi, yoki darsni yakunlash imkoni bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun o'yinlarni oddiydan murakkabga tomon qo'llab borilsa, o'quvchilarda ishtirok etish ko'nikmasi hosil bo'lib boradi. Jumladan o'quvchilarga o'lka materiallari asosida tuzilgan o'yinlar tashkil qilinsa, shartlarni tez va aniq bajarish imkonini beradi. Datlab darsning ma'lum qismida geografik nomlarni tez aytish yoki topish, rebus, loto, domina, boshqotirma, viktorinalar kabilar qo'llanilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu kabi boshqotirma o'yinlar qiziqarli bolib, o'quvchilarni kitob o'qishga, geografik xaritalarni o'rganishga, xullas mustaqil bilim olishga undaydi. O'quvchining dars davomidagi faoliyati, darsdan so'ng ham davom etadi. Ana shu

faoliyatdan foydalangan holda o'quvchi yangi dars mavzusini oldindan aytishi kerakligi, jihozlar va ayrim ma'lumotlar tayyorlab kelishlarini taklif qilish mumkin.

Ta'lim jarayonida o'yin mashqlarini muvoffaqiyatli o'tkazish o'quvchilarning ilmiy-metodik saviyasi va pedagogik mahoratning yuqori darajada bo'lishi, zamon bilan hamnafasligi, o'quvchilarning bilish, faollashtirish va oshqarish malakalarining shakillanganligiga bog'liq.

O'yin mashqlari uchun telivediniya va matbuot orqali muntazam berib borilayotgan va o'quvchi yoshlarning eng qiziq mashg'ulotlariga aylangan o'yinlarbi andoza qilib olish ham maqsadga muvofiq. Bunday o'yinlar jumlasiga «Kim millioner bo'lishni xoxlayda?», «Zakovat» o'yini «Zinama–zina» kabilarni kiritish mumkin. Mazkur o'yinlarni o'quvchilar avvalo o'z kuchi va bilimlarini sinab ko'radilar va yana ularning ko'plarida shu o'yinlar ishtirokchisi bo'lishi istagi vujudga kelishi tabiiy.

Zamon bilan hamnafas ishlayotgan har-bir o'qituvchi o'quvchilardagi bu istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida o'yinlarni o'z vaqtida o'tkazish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarni orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin yaratadi.

Zinama- zina o'yini

«Zinama- zina» o'yinini o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchilarni rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlariga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar olib, o'quvchilarga birma-bir savol berib boriladi. Agar guruh 4 ta o'quvchidan tashkil topgan bo'lsa, har bir o'quvchi 5 ta savolga javob berishi lozim. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

«O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusi yuzasidan “Zinama- zina”

didaktik o'yin mashqining savolnomasi.

1. Yer sharidagi cho'l mintaqasi o`simliklarining turlari qancha?
2. Bevosita inson tomonidan yo`q qilib yuborilgan cho'l o`simlik va hayvon turlari qanchani tashkil etadi?

3. Eramizning 1800 yilgacha har nechchi yilda qancha tur cho'l o'simlik va hayvon turlari yo'qolgan?
- 4.
5. Yil davomida qancha tekislik va tog` o'simliklari yo`q qilinadi?
6. Tog` oldi va tog` o'simliklari butun yer shari o'simliklarning necha foizini tashkil etadi?
- 7.
8. Igna bargli qorong`i o'rmonlardagi ba'zi daraxtlar yiliga necha metrgacha o'sadi?
- 9.
10. Igna bargli qorong`i o'rmonlarning eng qimmatbaho o'simligi qanday daraxt?
- 11.
12. Cho'l mintaqasi qaysi kenglikda joylashgan?
13. Dasht mintaqasi qaysi kenglikda joylashgan?
14. Cho'l daraxzorlari qanday o'simliklardan iborat?
15. Pssammofitli butali cho'lda qanday o'simliklar o'sadi?
16. Subtropik dasht o'simliklari qaysi kenglikga to'g'ri keladi?
17. Shuvoqli cho'l o'simliklariga qanday o'simliklar kiradi?
18. Sho`rali cho'l o'simliklariga qanday o'simliklar kiradi?
19. To`qay o'simliklariga qanday o'simliklar kiradi?
20. Dasht va cho'l o'simliklar qanday xususiyatga ega?
21. Dasht va cho'l hayvonlar qanday xususiyatga ega?
22. Dasht va cho'l o'simliklari eng ko'p qaysi mintaqada tarqalgan?
23. Dasht va cho'l hayvonlarining tarqalishi nimaga bog'liq?
24. Dunyodagi eng katta cho'l qaysi?
25. Sahroi Kabirning toshloq cho'llarida qanday o'simliklar o'sadi?

Savollar yonida to'g'ri javob yozilganligi sababli guruh sardorlari o'quvchilarning javoblarini nazorat qilish imkopniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar har bir to'g'ri javob uchun 1 balldan to'plab jami 5 balgacha ball to'plashi mumkin. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning to'plagan baliga qarab qayta guruhlaydi. Har bir guruh iqdidoriga qarab quyidagi topshiriqlarni bajaradi.

1-guruh uchun savollar.

1. Dasht deb nimaga aytiladi?

2. Hayvonlar nima uchu o'simliklarsiz yashay olmaydilar?

2-guruh uchun savollar.

1. O'simliklar ta'sirida yer po'stida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
2. Okean o'simliklari va hayvonlari quruqlikdagi o'simlik va hayvonlardan qanday farq qiladi?

3-guruh savollari

1. Cho'l o'simliklari va hayvonlar issiq iqlim sharoitiga qanday moslashgan?
2. Cho'l o'simliklar o'sishi uchun qanday sharoit zarur?

4-guruh uchun savollar

1. Yer yuzasida o'simlik va hayvonlarning notekis tarqalganligiga sabab nima?
2. O'simlik va hayvonlar hayoti uchun nimalar bo'lishi zarur?

O'quvchilar bu topshiriqlarni bajarib bo'lganlaridan so'ng, o'zaro savol-javob o'tkazadilar. Har bir guruh o'z topshiriqlarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon etadi.

Topshiriqni mukkamal bajargan kichik guruhlar rag'atlantiradi va g'oliblar aniqlanadi.

Bu o'yinlar orqali darslarning qo'yidagi afzalliklar ko'rish mumkin.

1. Ta'lim olish va o'yin faoliyati uyg'unlashgan darslarda o'quvchilarning bilim faoliyati uyg'unlashgan darslarda o'quvchilarning bilim faoliyati faollashadi, ularda tasavvur kuzatuvchanlik, topqirlik rivojlanadi, o'quvchilar tez va mantiqan fikrlashga yo'naltiriladi.
2. Mazkur darslarda o'quvchilar amaliyotdagi eng muhim va dolzarb muammolar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'z bilimlari, ko'nikma va malakalarini qo'llanilib, mazkur muammolarni hal qilishga erishadilar. Geografiyadan olgan bilimlari hayotdagi juda ko'p muommolarni hal etishga yordam berishga ishonch hosil qilgan holda fanga va tahsil olishga bo'lgan qiziqishlar ortadi.

3. O'yinlar darslari o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordam, do'stona munozara hosil bo'lishiga olib keladi. Bundan o'quvchilar jamoasi yanada mustahkamlanadi.

Darsda o'quvchilar juda ko'p ilmiy ommabop adabiyotlardan mustaqil foydalaniladilar, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar yordamida yanada bilimlarni mustaqil o'zlashtiradilar.

Darsni mustahkamlash, rivojlantirish va uyga topshiriq berish.

Mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa, o'quvchilarning shaxsiy hususiyatlarini o'rganishga yordam beradi. Darsda o'rganilgan mavzu mustahkamlab borilmasa o'rganilgan bilim o'quvchilar xotirasidan ko'tarilib ketadi. Mustahkamlash o'quvchi nutqini o'stiradi va bir qancha yo'l olib boriladi.

Dastlabki mustahkamlash. Bunda odatda yangi material o'rganib bo'lingach dars oxirida o'tkaziladi. Mustahkamlash yangi materialni o'rganish bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin. Dastlabki mustahkamlash, darslik va karta bilan ishlash, daftarga yozish, yozuvsiz kartani to'ldirish kabi o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari tarzida olib boriladi. Mavzu bunday usulda mustahkamlanganda yangi o'rganilgan mavzuni ilgari o'rganilgan mavzuni taqoslash yaxshi natija beradi. Mustahkamlashning yana bir yo'li takrorlash. Takrorlash darsning hamma qismida olib borish mumkin. «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusi o'rgatish o'quvchilarga muhim ahamiyatga ega. Har bir mavzu tushintirilib bo'lgach dars yakunlanishi arafasida mavzuni mustahkamlab olish kerak. Bu usul bilan o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlari sinaladi.

O'qituvchi o'z mehnatining natijasiga darsda ta'limning ko'rgazmali vositalardan foydalanib erishishi mumkin. Bu vositalar darsni yaxshiroq, to'liqroq o'quvchilar tushunib etishida yordam beradi. Akademik Pavlovning isbotiga ko'ra inson so'z orqali 2 sek.da o'rganilayotgan jismni o'zlashtirilib olishi mumkin ekan.

Shunday ekan, o'qituvchi darsda ko'rgazmali quoldan foydalanishi ham natijaga erishishning bir ko'rinishidir. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati qaqida "Suratni sinfga olib kirsang, soqov ham tilga kiradi"-deb aytilgan so'zning o'zi fikrimizning dalilidir. Ta'limning ko'rgazmali vositalarini 4 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.


1.BOSMA KO'RGAZMALI VOSITALAR

Bularga kartalar, sxemalar, jadvallar, applekatsiyalar misol bo'ladi.

KARTA GEOGRAFIYANING IKKINCHI TILI

«O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda bizda bu o'lkaning tabiiy, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kartalari hamda Dunyoning tabiiy va iqtisodiy kartasi kerak bo'ladi. O'quvchilarga o'lkaning tabiiy tuzilishi va tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi tabiat zonalarining geografik tarixi, o'lkadagi foydali qazilmalar, daryo va yirik ko'llar, yirik suv omborlar, yirik cho'llar va transport yo'llarini alohida ko'rsatish ularning kartaga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi.

Sxemalar. Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda o'lkaning tabiiy va ichki suvlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri kartasini xamda o'lkaning asrlar davomidagi suv resurslari chizmasini o'quvchilarga chizib ko'rsatsak, ularning tassovurlari, bilimlari ancha shakllanadi.



Jadvallar. Geografiyada muhim ahamiyatga ega. Jadvallar asosan statistik bilimlar asosida tuziladi. Indeks, koeffitsient va boshqalarni bilish turli va boy mazmunli jadvallar tuzish mumkin. Uni tuzishning muhim sharti asosan eng yangi ma'lumotlar asosida tuziladi.

Diagrammalar. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyatga ega. Diagrammalar orqali o'lkaning tabiiy, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi kashfiyotchi olimlar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning tabiiy, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi zaxirasi tarixi, tabiat

resurslarining aholining ehtiyojlarida, sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishdagi ulushini ifodalash mumkin.

2. TA'LIMNING EKTRANLI VOSITALARI.

Bunga ekranli statistik vositalar va ekranli vositalar misol bo'la oladi. Bu vositalar ham darsning qiziharli, muvoffaqiyatli chiqishiga imkon byeradi. «O'rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda uning tabiiy, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining kashfiyotchi olimlar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning tabiiy, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi zaxirasi tarixi, tabiiy hodisalar, tabiiy geografik tuzilishi va tektonikasi, tabiat zonalarining sanoat korxonalarini, fabrika zavodlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi filmlarni imkonicha vaqt topib o'quvchilarga ko'rsatish ham samarali natija byeradi.

3. TA'LIMNING OVOZLI VOSITALARI.

1. Gramplastinkalar
2. Magnitafon yozuvlari
3. Kompyuterlar

hozirgi vaqtda o'quvchilarning informatsiyalarini qabul qilish manbalari ko'payib bormoqda.

Radio va televizion axborot vositalari, kompyuter texnikasi, intyernet tarmoqlari orqali masofali ta'lim berish, bunda mavzu o'rganilayotganda o'quvchilardan ular ko'rgan, eshitgan ma'lumotlari so'raladi. O'quvchilarning darslik bilan ishlashi geografiya ta'limi jarayonida bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Darslik bilan ishlash o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar qajmi va me'yorini belgilaydi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan havaslarini oshiradi. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana olishga o'rgatish lozim.

Geografiya o'qituvchisi darsga ko'rgazmali qurollarsiz kirishi xech qanday samara byermaydi. Shuning uchun har bir yangi mavzu o'tilishidan oldin o'qituvchi o'sha mavzuga tegishli ko'rgazma vositalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Zyero dars yutug' o'qituvchining yutug'i, dars kamchiligi uning kamchiligidir.

Xulosa.

Tabiiy va iqtisodiy geografiya ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib, mustaqil mamlakatlarning qudratini yanada mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktab geografiya ta'limida o'tiladigan barcha mavzularning o'ziga xos jixatlari va ahamiyati bor.

Maktablarda boshlang'ich geografiya, tabiiy geografiya ta'limidan so'ng iqtisodiy ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari bo'yicha bilim beriladi. O'qitiladigan mavzular darsdan darsga o'tkan sari murakablashib va dolzariblashub boradi.

Hozirgi zamon taraqqiyoti, fani rivojlanib borayotgan bir paytda maktablarda o'ziga xos ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchining bilim olish uchun turli vositalardan foydalanishga o'rgatish muhim masaladir. O'quvchining erkin fikirlovchi shaxs sifatida tarbiyalash va uni ma'lum bir mutaxassisliklar bo'yicha yo'nalishtirishda geografiya fanining hissasi katta. Shu bilan birga bu fanni zamonga mos ravishda rivojlantirish, fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan baxramand etish xar bir geografning vazifasidir. Maktablarda o'qitilgan xar bir mavzularning maqsadi va mazmununi ochib berishga, noan'anaviy dars turlarini joriy etishga erishmoq zarur.

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda 7-sinflarda o'qitiladigan «Orta Osiyo tabiiy geografiyasi» fanidan «O'rta osiyoning tabiat zonalari» mavzusi to'g'risida puxta bilim egallashda qo'llaniladigan hozirgi zamon noananaviy uslublardan foydalandim hamda uning maktab geografiyasi ta'limida tutgan o'rni va ahamiyatini, mavzuning o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni, mavzuni o'qitishning metodlarini, dars tashkil etish turlarini, mavzuni mustahkamlash va uyga topshiriqlar berish yo'l yo'riqlarni, dars o'tish jarayonida karita, diagramma, grafik, sxema, jadvallardan foydalanishning ahamiyatini yoritib berishga harakat qildim. O'quvchilarga mustaqil ishlashi uchun turli amaliy topshiriqlar berib bilimni nazorat qilib turdim. Zero bu o'quvchilarni fanga hamda mavzuga bo'lgan qiziqishlarni orittirishga erishdim.

Bu mavzu o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashini fikrlash doirasining kengashiga olib keladi deb bilaman. Bu bitiruv ishini yozish davomida O'zbek olimlaridan P. Musaev, A. Soliev, A. Abdulqosimov, A. Soatov, J. Musaev, O. Muminov, R. Qayumov, P. G'ulomov R. Qurboniyozovlarning asarlari, internet, entsiklopediyalar, prezidentimiz I.A. Karimov asarlaridan foydalandim. Shunday ekan, biz bo'lajak o'qituvchilar barkamol avlodni voyaga etkazish, ularni har tomonlama yetuk, ham aqlan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli ishga bor kuch-g'ayratimiz va bilimimizni ayamaymiz.

Maktablarda o'qitishni tashqil qilish va yangicha darslar o'tish to'grisidagi o'z fikrlarimni bayon etdim. Bu menga kelajakda maktabda xar bir mavzu yuzasidan turli izlanishlar olib borishimga, bilimimni yanada chuqurlashtirish uchun xarakat qilishimga turtki bo'ldi.

Men malakaviy bitiruv ishimni yozishimda menga yaqindan ko'mak bergan kafedra professor – o'qituvchilariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Xulosa qilib shuni aytish mukinki maktabda bu mavzuni o'qitish «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yangi pedagogik texnologiyalar va yangi ta'lim standartlariga mos ravishda olib borilishi kerak.

Bunda o'quvchilarni mukammal bilim olishga ularga fanga bo'lgan qiziqishni orttirishga erishish lozim.

Takliflar:

1-Oliy maktabda yakuniy nazoratni yozma olinishida izohli-lug'atlarning ahamiyati kattadir.

2- Kelgusida materiklar tabiatiga oid izohli lug'atlar tuzilganda, O'rta Osiyo va Ozbekistondagilari bilan taqqoslash lozim deb hisoblayman.

3- Ushbu izohli lug'atdan maktab geografiya, biologiya o'qituvchilari, geograf-bakalavr talabalari, magistrLAR foydalansa foydadan xoli bo'lmaydi.

4-Kelgusida izohli lug'atni elektron variantini tayyorlashga va shu asosda himoya qilishga e'tiborni qaratmoq darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T.: «O'zbekiston», 1995.-55b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1999.-197b.
3. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch», T.: «Ma'naviyat», 2008.-173b.
4. O'zbekiston milliy intsiklopediyasi T.: 1999.-368b.
5. O'zbekiston milliy intsiklopediyasi T.: 2005.-402b.
6. Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1998.-138b.
7. Asanov G., Nabixonov M., Safarov, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T.: «O'zbekiston», 1994.-209b.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: «Sharq», 2006.-216b.
9. Atlas «Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi» 6-sinf Toshkent, O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi. 2005. 32-33b.
10. Babanskiy. Hozirgi zamon ta'limi maktablarida o'qitish metodlari T.: «O'qituvchi», 1990.-126b.
11. Ziyomuhamedov B Abdullayeva Sh Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: «O'qituvchi», 2000.-178b.
12. Eshmuhammedov Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: «O'zbekiston», 2008.-209b.
13. Musaev P. va boshqalar. Geografiya- materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, 6 sinf darsligi., T.: «O'qituvchi», 1996-146b.
14. Musayev R., Musayev J. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.
15. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar. T.: «O'qituvchi», 1990. 179b.
16. Rafiqov A.A., Azimov Sh. Amaliy geografiya. T.: «O'qituvchi», 2007.-160b.
17. Saotov A., Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, T.: «O'qituvchi», 2005.- 147b.
18. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. T.: «O'qituvchi», 2001.-186b.
19. Maktabda geografiya-ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal, T.: «Ta'lim-Media» MchJ, 2010.-32b, 10-son hamda 2012-2013.-32b, sonlari.
20. Geografik atlaslari. T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi. 2003.-32b. 5-6-7-8-9 sinflar,

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti
Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası geografiya va uni o`qitish
metodikasi ta`lim yo`nalishi 4-bosqich talabasi Xurshida Qudratovna
Xolboyevaning «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish
metodikasi mavzusida yozgan Bitiruv malakaviy ishiga berilgan**

Ilmiy rahbar xulosasi.

Talaba Xurshida Xolboyevaning umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodikasi mavzusida yozgan Bitiruv malakaviy ishida reja tuzilgan, adabiyotlar ro`yxatini ko`rsatgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2-ta bob, xulosa va takliflar, ilovalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Mavzuga oid kartalar, rasmlar, jadvallar mavjud.

Ishning birinchi bobida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodikasi mavzusining dolzarbligi va maktab geografiya ta`limida tutgan o`rni va ahamiyati, «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning maqsadlari va vazifalari hamda o`qitishning metodlari, noan'anaviy dars uslublari reja asosida yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning metodlari, O`rta Osiyoning tabiat zonalariga umumiy ta`rif, o`qitishning noan'anaviy dars uslublari reja asosida yoritilgan. Talaba tomonidan Bitiruv malakaviy ishida berilgan barcha ma`lumotlar, O`rta Osiyoning tabiat zonalari mavzusining nazariy asoslari keng yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maskur bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish bo`lib, ishni Davlat atestatsiya komissaiyasi oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

g.f.n. dost. Yu.B. Raxmatov

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti
Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası geografiya va uni o`qitish
metodikasi ta`lim yo`nalishi 4-bosqich talabasi Xurshida Qudratovna
Xolboyevaning «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish
metodikasi mavzusida yozgan Bitiruv malakaviy ishiga berilgan**

T a q r i z

Talaba Xurshida Xolboyevaning umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodikasi mavzusida yozgan Bitiruv malakaviy ishida reja tuzilgan, adabiyotlar ro`yxatini ko`rsatgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2-ta bob, xulosa va takliflar, ilovalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Mavzuga oid kartalar, rasmlar, jadvallar mavjud.

Ishning birinchi bobida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodikasi mavzusining dolzarbligi va maktab geografiya ta`limida tutgan o`rni va ahamiyati, «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning maqsadlari va vazifalari hamda o`qitishning metodlari, noan'anaviy dars uslublari reja asosida yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning metodlari, O`rta Osiyoning tabiat zonalariga umumiy ta`rif, o`qitishning noan'anaviy dars uslublari reja asosida yoritilgan. Talaba tomonidan Bitiruv malakaviy ishida berilgan barcha ma`lumotlar, O`rta Osiyoning tabiat zonalari mavzusining nazariy asoslari keng yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maskur bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish bo`lib, talaba Xurshida Qudratovna Xolboyevaning to`rt yil davomida olgan bilimlari asosida kelajakda mohir pedagog, O`zbekistonning ta`lim taraqqiyotiga, ravnaqiga hissa qo`shuvchi o`quvchilarni tarbiyalashda, mashaqqatli, ammo sharafli kasbning mohir ustasi bo`lib etishishiga ishonch bildirib qolaman.

**Geografiya o`qitish metodikasi kafedrası
katta o`qituvchisi:**

B.S. O`rinov

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti
Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası geografiya va uni o`qitish
metodikasi ta`lim yo`nalishi 4-bosqich talabasi Xurshida Qudratovna
Xolboyevaning «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish
metodikasi mavzusida yozgan Bitiruv malakaviy ishiga berilgan**

T a q r i z

Talaba Xurshida Xolboyevaning umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodikasi mavzusida yozgan Bitiruv malakaviy ishida reja tuzilgan, adabiyotlar ro`yxatini ko`rsatgan.

Bitiruv malakaviy ishi 2-ta bob, xulosa va takliflar, ilovalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Mavzuga oid kartalar, rasmlar, jadvallar mavjud.

Ishning birinchi bobida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitish metodikasi mavzusining dolzarbligi va maktab geografiya ta`limida tutgan o`rni va ahamiyati, «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning maqsadlari va vazifalari hamda o`qitishning metodlari, noan'anaviy dars uslublari reja asosida yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida umumta`lim maktablarining 7-sinflarida «O`rta Osiyoning tabiat zonalari» mavzusini o`qitishning metodlari, O`rta Osiyoning tabiat zonalariга umumiy ta`rif, o`qitishning noan'anaviy dars uslublari reja asosida yoritilgan. Talaba tomonidan Bitiruv malakaviy ishida berilgan barcha ma`lumotlar, O`rta Osiyoning tabiat zonalari mavzusining nazariy asoslari keng yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maskur bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish bo`lib, talaba Xurshida Qudratovna Xolboyevaning to`rt yil davomida olgan bilimlari asosida kelajakda mohir pedagog, O`zbekistonning ta`lim taraqqiyotiga, ravnaqiga hissa qo`shuvchi o`quvchilarni tarbiyalashda, mashaqqatli, ammo sharafli kasbning mohir ustasi bo`lib etishishiga ishonch bildirib qolaman.

**Nurota tumanidagi 33-son umumta`lim
maktabi direktori:**

X. Yusupov

HIMOYA VAQTI
Bitiruv malakaviy ishini baholash mezon
Tabiiy fanlar fakulteti,
«Geografiya o`qitish metodikasi» kafedrası
Bitiruv malakaviy ishi himoyasi

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi	Ishning amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi
12	32	16	10

Ishning rasmiylashtirilishi	Bitiruv malakaviy ishining himoyasi	Umumiy ball	№
10	20	100	

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____
